

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

BUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG‘ARMALARI FAKULTETI

“TASDIQLAYMAN”
Budjet hisobi va davlat
jamg‘armalari fakulteti
dekani _____ N.Oblomurodov
“ ” _____ 2015-yil

“PENSIYA ISHI” KAFEDRASI

MURODOVA BARNO YULDASHYEVNA

**IJTIMOIIY TA‘MINOT - DAVLAT IJTIMOIIY SIYOSATINING MUHIM
BO‘G‘INI SIFATIDA**

5231300 -“Pensiya ishi” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”
“Pensiya ishi” kafedrasi mudiri
_____ i.f.n., dots. A.Botirov

“ ” _____ 2015 y.

Ilmiy rahbar:
_____ ass. F. Hamraeva
“ ” _____ 2015 y.

TOSHKENT – 2015

MUNDARIJA:		Bet
KIRISH		3-6
I-BOB. IJTIMOIIY TA'MINOTNING MOHIYATI, OB'YEKTIV ZARURLIGI VA AHAMIYATI		7-21
1.1. Ijtimoiy ta'minotning mohiyati, zarurligi va mavjud bo'lishining ob'yektiv zarurligi		7-12
1.2. Ijtimoiy ta'minot – davlat ijtimoiy siyosatining muhim bo'g'ini sifatida		12-21
II-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT IJTIMOIIY TA'MINOTNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI		22-41
2.1. Davlat ijtimoiy ta'minotining moliyaviy manbalari va uning hozirgi holati tahlili		22-27
2.2 Davlat ijtimoiy ta'minotiga yo'naltirilgan Pensiya jamg'armasi mablag'laridan foydalanishning hozirgi holati tahlili		27-41
III-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT IJTIMOIIY TA'MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI		42-52
3.1 Zamonaviy sharoitda davlat ijtimoiy ta'minotining moliyaviy manbalarini mustahkamlash masalalari		42-46
3.2 Davlat ijtimoiy ta'minoti taraqqiyoti istiqbollari		46-52
XULOSA		53-56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI		57-63

KIRISH

Bitiruv-malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati insonning munosib turmush kechirishi va erkin rivojlanishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari o'rtasida birinchi bo'lib o'tish davrida aholini ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini e'lon qildi. O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirishning "o'zbek modeli" asosida aholini ijtimoiy muxofaza qilishning aniq manzilli va maqsadli tizimi barpo etildi. Mazkur kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda davlat va mahalliy hokimiyat organlari, ish beruvchilar, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega" - deb e'tirof etilgan. Ushbu konstitutsiyaviy huquq fuqarolarimizning eng muhim ijtimoiy va iqtisodiy huquqlaridan biri sifatida davlatimiz tomonidan har tomonlama kafolatlab qo'yilgan. Mamlakatimizda 3 milliondan ortiq fuqaro davlat pensiyalari bilan ta'minlangani, minglab oilalar moddiy hamda ijtimoiy yordamlar bilan qamrab olingani, ana shu maqsadlar uchun davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'laridan salmoqli moliyaviy mablag'lar sarf-xarajat qilinayotgani, ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minotning zarur infratuzilmasi shakllantirilgani va samarali ishlab turgani, bu sohada maxsus vakolatli markaziy va maxalliy davlat organlari, fuqarlarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat yuritayotgani ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot sohasidagi ishlarimiz ko'lami naqadar keng ekanini aniq va ravshan ko'rsatib turibdi.

"O'zbekistonda daromadlar darajasi bo'yicha aholining keskin tabaqalanish holati mavjud emasligini alohida ta'kidlash lozim. Eng ko'p va eng kam daromad oladigan aholi o'rtasidagi farq 2000 yildagi 53,3 barobardan bugungi kunda 7,8 barobarga tushdi. Bu o'rinda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning mezoni

hisoblangan bu ko'rsatkich xalqaro me'yorlarga ko'ra, 10 barobar qilib belgilanganini aytib o'tish lozim. O'zbekistonda mustaqillik yillarida Jini indeksi ko'rsatkichi 0,40 dan 0,296 ga pasaydi. Bu ko'rsatkich, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyalariga binoan 0,35-0,37 miqdorida belgilangan xalqaro standartlar nuqtai nazaridan qaraganda, aholimizning ijtimoiy farovonligi muttasil o'sib borayotganidan dalolat beradi"-deydi Prezidentimiz I.A. Karimov o'z ma'ruzalarida¹. Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning tub negizida aholini ijtimoiy muhofaza qilish, uning ijtimoiy ta'minotini amalga oshirish, qilingan mehnatiga yarasha taqdirlash hamda turmush farovonligini oshirish masalasi yotadi.

Biroq, ta'kidlash kerakki mazkur sohada bajarilishi shart bo'lgan ko'plab muammolar mavjud. Respublikamizda iqtisodiyotning erkinlashuvi va mulkchilikning turli shakllarining rivojlanishi jarayonida fuqarolarning ijtimoiy himoyasi, ularning pensiya ta'minoti ham keng, har tomonlama tadqiq etilishni talab etadi. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqot ishida yuqorida qayd etilgan masalalar va mamlakatimizda ushbu sohada olib borilayotgan islohotlarning zarurligi o'rganiladi va baho beriladi, ushbu holat bitiruv-malakaviy ishimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti sifatida davlat ijtimoiy ta'minotini amalga oshiruvchi jamg'armalar bo'lmish O'zbekiston Respublikasida davlat budjeti va O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi olindi. Maxalliy doirada Surhandaryo viloyati budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Boshqarmasi faoliti tanlandi.

Bitiruv malakaviy ishning predmetini O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta'minotni tashkil etish va isloh qilishdagi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

¹“2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir” O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 19.01.2015 yil.-www.uza.uz- internet sayti ma'lumotlari asosida

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining *maqsadi*- ijtimoiy ta'minot tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bitiruv malakaviy ishida qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi *vazifalarni* amalga oshirish belgilab olindi:

- Ijtimoiy ta'minotning mohiyati, zarurligi va mavjud bo'lishining ob'yektiv zarurligini o'rganish;
- davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda ijtimoiy ta'minotning tutgan o'rnini nazariy jihatdan o'rganish;
- davlat ijtimoiy ta'minotining moliyaviy manbalari va uning hozirgi holatini tahlil etish;
- davlat ijtimoiy ta'minotiga yo'naltirilgan Pensiya jamg'armasi mablag'laridan foydalanishning hozirgi holatini tahlil etish;
- zamonaviy sharoitda davlat ijtimoiy ta'minotining moliyaviy manbalarini mustahkamlash masalalarini tadqiq etish;
- davlat ijtimoiy ta'minoti taraqqiyoti istiqbollari tadqiq etish;
- davlat ijtimoiy ta'minot tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ishning amaliy ahamiyati, muallif tomonidan ishlab chiqilgan nazariy xulosalarning va uslubiy tavsiyalarning mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan pensiya ta'minoti tizimini istiqbolda rivojlantirish va samaradorligini oshirishda xamda tizim nazoratini yuritishda qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Ilmiy xulosa va amaliy takliflardan mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'riqnoma, me'yoriy xujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi va tuzulishi. Ushbu bitiruv-malakaviy ishimiz o'z ichiga kirish, 3 ta bob, uning asosiy mazmunini yorituvchi 6 ta savol, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kabi tarkibiy qismlardan iborat.

Ishning kirish qismida bitiruv-malakaviy ishi mavzuning dolzarbligi, unig ob'ekti va predmeti, ishning maqsadi va vazifalari, uning nazariy va amaliy ahamiyati o'z ifodasini topgan.

Ishning birinchi bobida ijtimoiy ta'minotning mohiyati, ob'yektiv zarurligi va ahamiyati nazariy jihatdan o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy ta'minotining hozirgi holati tahlili keltirilgan.

Ishning uchinchi bobida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat ijtimoiy ta'minoti tizimini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

I-BOB. IJTIMOY TA'MINOTNING MOHIYATI, OB'YEKTIV ZARURLIGI VA AHAMIYATI


1.1. Ijtimoiy ta'minotning mohiyati, zarurligi va mavjud bo'lishining ob'yektiv zarurligi

Inson hayoti davomida uning sog'ligiga ta'sir etuvchi va buning natijasida uning asosiy daromad manbai bo'lmish ish haqini yo'qotishiga olib keluvchi shart-sharoitlarning yuzaga kelish xavfi ostida turadi. Ushbu shart-sharoitlarga: kasallanish, qarilik, nogironlik, boquvchisini yo'qotish va boshqalar kiradi. Mustaqil ushbu sharoitlarga qarshi kurashish har doim ham mumkin emas. Ular shaxsning faol faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, alohida shaxslarning hoxish va irodasiga bog'liq bo'lmaydi. Shu bilan birgalikda ular to'g'ridan-to'g'ri jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham davlat ushbu holatning yuzaga kelishidagi ma'lum bir javobgarlikni o'z zimmasiga olib, davlat pensiyalarini, ijtimoiy nafaqalarni va xizmatlarni tayinlash orqali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantiradi.

Inson hayot-faoliyati davomida ma'lum bir hodisalarni ijtimoiy xavf-xatar sifatida namoyon bo'lishining asosiy omillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiy tizim va umumjamiyat mehnat faoliyatini tashkil etishning shart-sharoitlari;
- mehnat faoliyati natijasida, shuningdek oila ichidagi uni ta'minoti uchun daromadning yo'qligi, oiladagi mehnatga qobiliyatsiz a'zolariga qo'shimcha xarajatlarning yuzaga kelishi;
- davlat va jamiyatning aytib o'tilgan shart sharoitlarning natijalarini bartaraf etishga yoki uni engillashtirishga bo'lgan qiziqishining mavjudligi

Inson mehnat qobiliyatiga va tabiatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy xavf-xatarlarni to'rt asosiy guruhga bo'lish mumkin (2.1-rasm):



1.1.-rasm. Ijtimoiy xavf-xatarlar²

1. Iqtisodiy tushdagi (ishsizlik);
2. Fiziologik tushdagi (vaqtinchalik yoki doimiy asosda mehnatga qobiliyatligini yo'qotish, homiladorlik yoki bola tug'ish, qarilik, o'lim);
3. Faoliyat yuritish tushdagi (mehnatdagi shikastlanish, kasbiy kasalliklar);
4. Demografik va ijtimoiy tushdagi (ko'p bolalilik, oilaning to'liq emasligi, etimlilik).

Iqtisodiy va demografik xavf-xatarlar shaxsning mehnatga qobiliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aks etmaydi. Lekin ish joyining uzoq vaqt davomida mavjud bo'lmasligi, ishsiz shaxsning va uning oilasining umumiy hayot davomiyligi ko'rsatkichini pasayishiga, shuningdek, uning kasbiy mahoratini yo'qotishiga olib keladi. Ko'p bolalilik bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar o'z navbatida oilaning

² E.E. Machulskaya "Pravo sotsialnogo obespecheniya v usloviyax ranochnoy ekonomiki: teoriya i praktika pravovogo regulirovaniya" Avtoreferat dis. d.yu.n. M. 2000. S.10, V.G. Popov "Sotsialnaya zashchita naseleniya v regione" Uchebnoe posobie. Ekaterinburg. 2012. S.57-58.

o'rtacha daromadini yashash savatchasi xajmidan past bo'lishiga, oziqlanish, dam olish va boshqa xayotiy sharoitlar sifatining

Ijtimoiy siyosat deganda jamiyatdagi har bir shaxs hayoti va faoliyati uchun uning rivojlanishiga yordam beradigan va ijodiy imkoniyatlarining to'liq namoyon qilishini rag'batlantiradigan zarur shart-sharoitlarni yaratish va saqlab turishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar tushuniladi.

Bugungi kunda respublikada ijtimoiy siyosatning quyidagi yo'nalishlari bo'yicha ish olib borilmoqda:

1. Ishlab chiqarish sohasida:

- bandlikni yuqori darajada ushlab turish;
- xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish amalga oshirilayotganda mehnat jamoalari manfaatlarini himoya qilish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish.

2. Daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash sohasida:

- ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiyalarning minimal miqdorini belgilash;
- inflyatsiyaning o'sishiga mutanosib ravishda aholi daromadlarini indeksatsiyalash;
- daromadlarni kam ta'minlangan fuqarolar hisobiga qayta taqsimlash.

3. Iste'mol sohasida:

- ichki iste'mol bozorini himoyalash;
- iste'mol mollari ishlab chiqarishni rag'batlantirish;
- tovarlarning erkin almashinuviga sharoit yaratish;
- asosiy iste'mol mollari darajasining pasayishiga yo'l qo'ymaslik;
- o'ta muhim, yuqori kalloriyali oziq-ovqat iste'molining tarkibini takomillashtirish.

4. Ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish sohasida:

- Davlat tomonidan kafolatlangan ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot xizmatlarining miqdorini belgilash va sifatini ta'minlash;

- Bu xizmatlarni ko'rsatishning moddiy, mehnat va moliyaviy asosini mustahkamlash;

- Bu sohalarda band bo'lgan xodimlar malakasini oshirish va moddiy rag'batlantirish mexanizmini mustahkamlash;

5. *Ijtimoiy himoya sohasida:*

- kam ta'minlangan oilalarga qaratilgan nafaqalarni belgilash;
- aholini ijtimoiy himoya qilishda manzillilikni ta'minlash;
- shu maqsadlarda kam ta'minlangan oilalarga nafaqalarni mahallalar orqali etkazilishini ta'minlaydigan mexanizmlarni yaratish va takomillashtirib borish;

- aholining ijtimoiy muhofazasi uchun davlat moliyaviy manbalari bilan bir qatorda, homiylik, xayriya tashkilotlari, korxonalar mablag'larini jalb etish;

- davlat tomonidan yuqori tug'ilish sur'atlarini rag'batlantirishni qisqartirish.

Amalga oshirilish usuliga ko'ra ijtimoiy siyosatni aktiv va passiv turlarga ajratish mumkin. *Passiv ijtimoiy siyosat* narxlarni sun'iy ravishda tutib turish, shuning hisobiga aholi turmush darajasini ma'lum darajada tutib turish yoki barqarorlashtirish, ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ishlab chiqaruvchilarga narxlarni sun'iy ravishda tutib turish natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash maqsadida dotatsiyalarni oshirishni ko'zda tutadi. *Aktiv ijtimoiy siyosat* esa tashabbus ko'rsatish va tadbirkorlik uchun sharoit yaratib berishda, aholi bandligini oshirishda, yangi ish o'rinlarni ochishda, aholining nozik qatlamlari bandligini oshirishni rag'batlantirishda, pensionerlar, qariyalar, nogironlar, bolalar, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy muhofazalashda va qo'llab-quvvatlashda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholi yoshining tarkibiy tuzilishi ham respublikamizdagi barcha ijtimoiy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda, bu sohadagi dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa ijtimoiy masalalarning, jumladan, ijtimoiy himoya, pensiya ta'minoti, yoshlar masalasi, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohalarini rivojlantirishning islohotlarimizning ustuvor yo'nalishlari ekanligini belgilab bermoqda.

Ijtimoiy siyosatda quyidagi asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- aholini ijtimoiy himoya qilish;
- ijtimoiy ta'minot;
- davlat ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash.

Ijtimoiy himoya - o'ziga bog'liq bo'lmagan ravishda ijtimoiy muhofazaga muhtoj fuqarolarga nisbatan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam shakli bo'lib, kam ta'minlangan aholi qatlamlariga ko'rsatiladigan xizmatlar, nafaqalar va imtiyozlarni ko'zda tutadi. Ijtimoiy himoya tadbirlari yordamida aholining umumjamiyat ishlab chiqarish jarayonida qanday qatnashishidan qat'i nazar, aholining ma'lum tabaqalari turmush darajasini birmuncha (vaqtinchalik yoki doimiy) yaxshilashga erishiladi. Bu maqsadlardagi xarajatlarning aksariyati davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi, shuningdek, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxona, muassasa va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan ham amalga oshiriladi. Bugungi kunda quyidagilar ijtimoiy yordam tizimini moliyaviy va moddiy jihatdan qo'shimcha tarzda qo'llab-quvvatlamoda:

- o'z mablag'lari va Fondlari hisobidan o'z xodimlariga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlarida moliyaviy yordam to'layotgan va turli imtiyozlar berayotgan korxonalar;

- jamoat tashkilotlari;
- kasaba uyushmalari, nuroniylar, nogironlar jamiyatlari va boshqalar.

Ijtimoiy ta'minot - fuqarolarning qarilikda, kasallik ro'y berganda, mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yoki butunlay yo'qotganda, boquvchisini yo'qotganda, shuningdek, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish davlat tizimidir. Ijtimoiy ta'minotning markazida pensiya ta'minoti yotadi. Bizning respublikamizda ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishning quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllari mavjud:

- davlat ijtimoiy sug'urtasi;
- davlat byudjeti.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi fuqarolarning zarur turmush darajasini kafolatlaydi. U majburiy bo'lib, ish beruvchilar va mehnatkashlarning sug'urta badallari

hisobidan Pensiya fondi, Bandlik fondi va Kasaba uyushmalari mablag'larining shakllanishiga asos bo'ladi.

Demak, davlat ijtimoiy taminoti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar;
- davlat pensiya ta'minoti;
- uy-internatlarda keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga qarash va xizmat ko'rsatish;
- nogironlarni ortopediya-protez buyumlar va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash;
- bolalar uylari, internatlar va boshqa muassasalarda bolalarga qarash va ularni tarbiyalash;
- nogironlarni ishlab chiqarish va kasbiy reabilitatsiya qilish;
- aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish va imtiyozli aholi qatlamlarini dori-darmonlar bilan ta'minlash;
- uylarda ijtimoiy xizmat ko'rsatish va boshqalar.

Bu xizmatlarning ayrimlari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilsa (masalan: yoshga doir, boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalari, dafn marosimlari uchun nafaqa kabi), ayrimlari (masalan: qariyalar va nogironlar uylarini saqlash, bepul ortopediya-protezlash vositalari bilan ta'minlash, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi) davlat byudjeti (respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar) hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

1.2. Ijtimoiy ta'minot – davlat ijtimoiy siyosatining muhim bo'g'ini sifatida

Ijtimoiy ta'minot-ma'lum bir kategoriyadagi fuqarolarni mamlakat rivojlanishining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalarning yuzaga kelishi natijasida boshqa jamiyat a'zolari bilan ijtimoiy tengligini ta'minlash maqsadida davlat byudjeti va mahsus ijtimoiy fondlar hisobidan moddiy ta'minlashga yo'naltirilgan davlat ijtimoiy siyosatining shakli hisoblanadi. Ijtimoiy ta'minotga zaruriyat fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi bilan vujudga kelgan. Jamiyatning


iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga qaramasdan, unda har doim tabiiy, o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablar doirasida hayotiy faoliyatni amalga oshirish uchun etarli miqdordagi mablag'ga ega bo'lmagan fuqarolar topiladi. Ular jumlasiga avvalo bolalar va qariyalarni kiritish mumkin. Bundan tashqari mehnat qilishga qobiliyatsiz bo'lgan shaxslar jumlasiga sog'ligini yo'qotganligi sababli vaqtincha yoki doimiy asosda mehnat qilish qobiliyatini yo'qotgan fuqarolar ham kiradi.

Bozor iqtisodiyoti ijtimoiy xavflardan aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlashning avtomatik mexanizmini shakllantirmaydi, chunki ular ma'lum bir moddiy xarajatlarni talab etib, foyda keltirmaydi. Ushbu vazifalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ma'lum bosqichiga etgan, jamiyatning rivojlanishida uning ahamiyatini tushunib etgan davlat amalga oshiradi. Ijtimoiy davlat bu shunday davlatki, u o'z hududidagi fuqarolariga, shuningdek chet el fuqarolariga hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga qonuniy doirada maqbul yashash sharoiti va erkin rivojlanishni ta'minlab beradigan davlatdir. U davlat ijtimoiy ta'minot tizimini shakllantirib, pensiyalar, nafaqalar, kompensatsiyalar, tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishda ishtirok etadi (1.2-rasm).

Ijtimoiy ta'minotning mohiyati uning asosiy funktsiyalarida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy ta'minotning asosiy funktsiyalari qatoriga, uning *iqtisodiy, siyosiy, himoyaviy va rehabilitatsion, demografik funktsiyalarini* kiritish mumkin.

Ijtimoiy ta'minotning *iqtisodiy funktsiyasi* quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mehnatga qobiliyatsizlik, ishsizlik, boquvchisini yo'qotganlik bilan bog'liq yo'qotilgan ish haqi va boshqa mehnat haqlarini qisman qoplanishida;
- ma'lum xayotiy sharoitlarni yuzaga kelishi natijasida (masalan farzandlarning mavjudligi) qo'shimcha xarajatlarni qisman qoplashda;
- ishsizlarga, kam ta'minlangan oilalar va shaxslarga minimal pulli, natural va boshqa yordam turlarini ko'rsatishda;
- davlat kafolatlari doirasida tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni tekinga taqdim etishda (masalan dori-darmon ta'minotida) va boshqalarda.



1.2-rasm. Tegishlilik darajasi bo'yicha ijtimoiy ta'minot tizimi³

Ijtimoiy ta'minot tizimni moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lib yagona ijtimoiy to'lov (YAIT), sug'urta badallari, turli darajadagi byudjetlar hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'minotning *siyosiy funksiyasi* aholining turli qatlamlaridagi yashash darajasidagi me'yoriy farqlar natijasida jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni susaytirishga imkon beradi.

Ijtimoiy ta'minotning *himoyaviy funksiyasi* aholining turli qiynchiliklari davrida jamiyat tomonidan ijtimoiy ta'minot taqdim etiladi.

Ijtimoiy ta'minotning *reabilitatsion funksiyasi* turli hil ijtimoiy xavf-xatarlarning yuzaga kelganida, yashash darajasi shart-sharoitlarini ta'minlab berish

³ Ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan mustaqil tuzuldi

maqsadida turli hil moddiy ta'minot berish, ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish orqali fuqaroning ijtimoiy obro-e'tiborini saqlab qolishga qaratilgan.

Ijtimoiy ta'minotning *demografik funktsiyasi* mamlakat aholisining o'sishiga, sog'lom avlodning shakllanishiga, fuqarolar hayot davomiyligi darajasini o'sishiga va boshqalarga imkon beradi.

Ijtimoiy ta'minotga ehtiyoj jamiyat paydo bo'lishi bilan tug'ildi. Har qanday jamiyatda – uning iqtisodiy va siyosiy tuzilishidan qat'i nazar – o'zlariga bog'liq bo'lmagan vaziyatlar sababli tirikchilik kechirish uchun mablag' topishga qodir bo'lmagan aholi toifalari bo'ladi. Ularga, eng avvalo, bolalar va keksa kishilar kiradi. Bundan tashqari ijtimoiy yordamga muhtojlar safini vaqtincha yoki bir umr mehnatga layoqatsizligini yo'qotgan odamlar to'ldirishi mumkin. Jamiyat rivojlanishi va ijtimoiy aloqalar murakkablashishi bilan ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolar qatoriga iqtisodiy sabablar oqibatidagi ishsizlar, kambag'allar, shuningdek inflyatsiyaning yuqori sur'atlaridan moddiyo ahvollari og'irlashganlar kiradi.

Ijtimoiy ta'minot deyilganda quyidagilar anglanadi:

- fuqarolarga qarilikda mehnat faoliyati, mehnat qobiliyati va boquvchisini yo'qotganligi uchun ko'zda tutilgan moddiy ta'minotdan tashqari ularning normal turmush va madaniy standartlarini kafolatlaydigan taqsimlash shakli;

- fuqarolarni yoshi, kasallanishi, nogironligi, ishsizligi, boquvchisini yo'qotganligi, bolalarni tarbiya qilish uchun hamda qonunda belgilab qo'yilgan boshqa holatlar bo'yicha moddiy ta'minlash tizimi;

- bir tomondan fuqarolar, ikkinchi tomondan davlat, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari tomonidan daromadlari yo'qatilishi yoki kamayishi vaziyatlari paydo bo'lganda fuqarolarga maxsus fondlar, byudjet mablag'lari hisobiga tibbiy yordam ko'rsatish, pensiya, nafaqalar va moddiy ta'minlashning boshqa shakllari asosida tarkib topayotgan ijtimoiy munosabatlar jamlanmasi.

Qonunchilik ijtimoiy ta'minotning quyidagi olti turini nazarda tutadi:

- pensiyalar;

- nafaqalar;
- ijtimoiy ta'minot kompensatsiyasi;
- imtiyozlar;
- ijtimoiy va tibbiy xizmatlar;
- hayotiy zarur ashyolar.

Yuqorida qayd etilgan bu turlarning xar biri, odatda yana qator turlarga bo'linadi. Bunda ijtimoiy ta'minot turlari barqaror xususiyatga ega bo'lgani holda ularning boshqa turlari muayyan siyosiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarga bog'liq ravishda o'zgarib boradi.

Ushbu ijtimoiy himoya ko'rsatish shaklida avvaldan ma'lum to'lovlar bajarilganmi yoki yo'qmi, shuningdek, shaxslarning moddiy holati (muhtojligi) e'tiborga olinmagan holda davlat tomonidan ijtimoiy ta'minot taqdim etiladi. Mazkur ijtimoiy himoyaning moliyaviy manbalari – bu umumiy va maxsus soliqlar hisobidan shakllanadigan davlat byudjetidan to'g'ridan-to'g'ri olinadigan mablag'lardir.

Aholining ijtimoiy ta'minoti tizimidagi eng muhim unsur – ijtimoiy sug'urtadir. *Ijtimoiy sug'urta* – davlat tomonidan belgilab qo'yilgan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan, davlat maqsadli, byudjetdan tashqari ijtimoiy sug'urta fondi, shuningdek boshqa jamoaviy va xususiy sug'urta fondlari mablag'lari hisobiga keksa yoshdagi, mehnatga layoqatsiz fuqarolarni moddiy ta'minlash, qo'llab quvvatlash tizimidir.

Ijtimoiy sug'urta – pul nafaqalari tizimi bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- ishsizlik nafaqasi;
- mehnatga layoqatsizlik nafaqasi;
- homiladorlik va tug'ish nafaqasi;
- qarilik bo'yicha, nogironlik hamda boquvchisini yo'qotganligi bo'yicha pensiya.

Ijtimoiy sug'urtaning quyidagi turlari farqlanadi:

1. *Majburiy ijtimoiy sug'urta*. Bu iqtisodiy faol aholini o'z daromadini mehnatga layoqatsizligi tufayli (kasallik, baxtsiz hodisa, keksalik) yoki ishsiz

qolgani sababli yo'qotish xavfidan ijtimoiy himoyalash institutidir. Mazkur tizimning moliyaviy manbalari – ish beruvchilar, xodimlarning sug'urta to'lovlari (badallari) hisoblanadi. Ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalarni sug'urtalash tizimlari bundan istisno, ular faqat xodimlarning badallari hisobidan ta'minlanadi.

Ijtimoiy sug'urta tizimlari doirasidagi pensiya va nafaqa pullari fuqaroning sug'urta huquqiga ko'ra, shuningdek uning va ish beruvchining ushbu tizimlarning moliyalashtirilishidagi ishtirokidan kelib chiqqan holda beriladi.

Ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning muhim jihati – mahrum bo'lgan ish haqini o'rnini qoplash omilidir. Unga ko'ra, pensiya va va nafaqa miqdorlari avvalgi ish haqi va badallar miqdori bilan bog'liq bo'lib, ma'lum sug'urta davri mavjudligi har qanday muhtojlik tekshiruvlarsiz belgilanadi.

Majburiy sug'urta to'lovlari miqdori jamiyatda shakllangan ijtimoiy kafolat darajalari bilan bog'liq va ular xodim bilan ish beruvchi o'rtasida, davlat ishtirokida tuziladigan shartnomalar asosida shakllanadi.

2. *Ixtiyoriy qo'shimcha (kasbiy) ijtimoiy sug'urta.* Sug'urtaning bu turi iqtisodiyotning alohida tarmoqlari yoki korxonalar doirasida yollanma xodimlar uchun uzoq muddatli tarmoqli va jamoa shartnomalari asosida tashkil etiladi. Odatda, ixtiyoriy qo'shimcha ijtimoiy sug'urta tizimi xususiy tusga ega bo'ladi, biroq ular maxsus qonunchilik bilan tartibga solinadi. Bunda sug'urtalanuvchilar uchun ijtimoiy kafolatlar tizimi yaratiladi. Jumladan, bir korxonada ishlashning eng kam muddati belgilanadi, ushbu muddat tugagach, xodimda qo'shimcha ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish huquqi paydo bo'ladi. Masalan, pensiya ta'minoti, sug'urtalanuvchi o'z ish joyini o'zgartirgan holda sug'urta bo'yicha qo'lga kiritgan huquqlari saqlanib qoladi.

Ijtimoiy himoyaning ushbu instituti tashkiliy-huquqiy shakllari alohida korxonalarning pensiya tizimlari hisoblanadi. Buning uchun pensiya huquqlarini amalga oshirishni kafolatlash maqsadida zahira pensiya jamg'armasi tuziladi. Korxona yoki mustaqil pensiya kassasi mablag' ajrata olmagan holda jamharmat to'lov majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Hozirgi davrda nodavlat pensiya jamg'armalari rivojlanib bormoqda. Ular o'zining huquqiy maqomiga ko'ra ijtimoiy ta'minotning notijirat tashkiloti bo'lib, majburiy ijtimoiy sug'urta tizimiga ixtiyoriy qo'shimcha shakl sifatida faoliyat olib boradi.

3. *Fuqarolarning xususiy sug'urtasi.* Sug'urtaning bu turi shartnoma asosida rasmiylashtiriladi, uning doiralari, amal qilishi muddatlari, jismoniy shaxslarning moliyaviy imkoniyatlari, tavakkalchilik turlari bilan cheklangan bo'ladi. Ushbu sug'urta shakli uchun fuqarolarning o'zlari mas'ulligi xosdir. Davlat ijtimoiy yordami – mehnatga layoqatsizligi, ishsizligi, daromad manbai mavjud bo'lmaganligi sababli mustaqil ravishda o'zini moddiy ta'minlay olmagan shaxslarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam hisoblanadi. Bu yordam turining hajmi shaxs daromadi yoki aholining umumiy turmush darajasi bilan bog'liq bo'lmaydi. Ijtimoiy yordam doirasidagi nafaqa va yordam pullari faqat amaldagi qonunchilikda belgilab qo'yilgan aholi toifalariga beriladi. Mazkur himoya institutining asosiy jihati – bu aholining kam ta'minlangan guruhlariga (bolalikdan nogiron, boshqa nogiron bo'lgan shaxslar, pensiya olish uchun zarur sug'urta maqomiga ega bo'lmagan fuqarolarga) davlatning ijtimoiy-shartnomasiz yordam ko'rsatishidir.

Jismoniy shaxs tomonidan ijtimoiy yordam olishi uning ijtimoiy mehnat faoliyatidagi ishtirokiga bog'liq bo'lmaydi. Ushbu tizimning ijtimoiy yordam pullari muhtoj shaxsning daromadi tekshirilganidan keyin, unga tirikchilik o'tkazishning eng kam darajasini ta'minlash maqsadida beriladi. Bunga shaxsda tirikchilik o'tkazishning eng kam darajasi hajmida mablag'ning mavjud emasligi asos bo'ladi.

Ijtimoiy himoya tizimida nafaqa va yordam puli miqdori oila a'zolarining daromadlarini hisobga olgan holda belgilanib, bu ularning umumiy daromad hajmi o'rnatilgan tirikchilik ko'rishning eng kam miqdoriga etishi uchun tayinlanadi. Ijtimoiy himoya ushbu institutining moliyaviy manbai hududiy va munitsipal byudjetlar hisoblanadi. Bu mablag'lar umumiy soliq tizimi va maxsus maqsadda yig'iladigan soliq hisobidan shakllanadi.

Moliyaviy muammolar *ijtimoiy yordam ko'rsatishning manzilligi (tanlanishi)* printsiplining keng yoyilishiga sabab bo'ldi. Moliyaviy resurslar etarli bo'lmagan, ehtiyojlar ortadigan inqiroz davrlarida eng muhtoj fuqarolarga nafaqalarni aniq maqsadli taqdim etish zarurati paydo bo'ladi. Hozirgi davrda nafaqalarning manzilliligi printsiplari ko'pgina mamlakatlarda joriy etilgan. Bunda ana shu nafaqalarning miqdori daromadlar yoki ta'minlanganlik umumiy darajasiga bog'liq ravishda o'zgarib boradi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish aholining ehtiyojmand qatlamlariga pensiya, nafaqa, imtiyozlar, moddiy yordam berish, xizmatlar ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Jahon tajribasi ijtimoiy himoya tizimining to'rtta asosiy tarkibiy qismini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

1. Mehnatga layoqatli bo'lmaganligi, ish joyi, daromad manbalari mavjud emasligi sababli o'z-o'zini mustaqil ravishda moddiy jihatdan ta'minlashga qodir bo'lmagan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish.

2. Davlat ijtimoiy va pensiya ta'minoti. Bu iqtisodiy faol aholining ish joyini yo'qotish yoki pensiya yoshiga etishi bilan daromaddan mahrum bo'lish havfidan ijtimoiy himoya qilish tizimi bo'lib, majburiy ijtimoiy sug'urtalash shaklida amalga oshiriladi.

3. Ihtiyoriy qo'shimcha (kasbiy) sug'urtalash. Bu alohida tarmoqlar va korxonalar doirasida uzoq muddatli jamoa bitimlari asosida amalga oshiriladi.

4. Fuqarolarning ihtiyoriy ravishda o'z-o'zini shaxsiy sug'urtalashi.

Aholining ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand sub'ektlariga quyidagi guruhlar kiradi:

- *pensionerlar*. Aholining bu guruhi pul ta'minoti huquqiga ega fuqarolar bo'lib, ularning bu huquqi tegishli qonunchilik xujjatlari asosida amalga oshiriladi. Muayyan yoshga (erkaklar 60 yosh, ayollar 55 yosh, ayollarga nisbatan ayrim hollar bundan istisno) etgan fuqarolar pensiyaga chiqish huquqiga egalar.

Nogironlikning tegishli guruhi belgilangan shaxslar, oila boquvchisini qaramog'idagi mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari, shuningdek, boquvchisidan

ajragan bolalar (14 yoshgacha bo'lgan bolalar) parvarishi bilan mashg'ul shaxslar, uzoq vaqt muayyan kasbiy faoliyatni bajarib kelgan xodimlarning ayrim toifasi; ichki ishlar idoralarida harbiy xizmatni o'taganlar, ularning oilalari a'zolari ham aholining pensiya ta'minoti huquqiga ega toifasiga kiradi.

Shu bilan birga aholining bu toifasiga korxona, muassasa, tashkilotda ishlayotgan pensiya oluvchi fuqarolar ham kiradi. Ishlayotgan pensionerlarga keksalik bo'yicha pensiya 50,0 % miqdorida to'lanadi;

- *nogironlar*. Aholining bu toifasiga jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi, turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muxtoj bo'lgan shaxslar kiradi. Bu toifadagi shaxslar hayot faoliyatini cheklashga olib kelgan va ijtimoiy himoyaga muxtoj qilib qo'ygan jarohat yoki nuqsonlar, kasalliklar bo'yicha aniqlanadi;

Organizm funktsiyasining buzilish darajasiga bog'liq holda va hayot faoliyati cheklanganligiga ko'ra birinchi va ikkinchi guruh nogironligi belgilanadi. Nogiron bolalar jismoniy yoki aqliy, sezgi nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muxtoj 18 yoshgacha bo'lgan shaxslardir. 16 yoshgacha bo'lgan bolalarni nogiron deb topish tibbiy-maslahat komissiyalari tomonidan, 16 yoshdan 18 yoshgacha esa – tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

- *kam ta'minlangan oilalar*. Ular daromadlari tirikchilik eng kam miqdoridan yuqori bo'lmagan oilalardir. Kam ta'minlanganlik (kambag'allik) chegarasi mutaxassislar tomonidan me'yoriy iste'mol savatchasi miqdoridan kelib chiqib belgilanadi. Hozirgi vaqtda yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga o'tilishi munosabati bilan bu chegarani belgilash ancha murakkab masala hisoblanadi. Kam ta'minlangan oilalarga ko'p bolali, boquvchisini yo'qotgan, nafaqaxo'r oilalar kiradi.

- *ishsizlar*. Aholining bu toifasiga ishsiz va daromad topish manbai bo'lmagan mehnatga layoqatli fuqarolar kiradi. Bu toifadagi fuqarolar aholining ish bilan bandligi xizmatida ishsiz sifatida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishlari talab qilinadi.

Aholining ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand sub'ektlariga, shuningdek quyidagilar ham kiradi:

- homilador va yosh bolalarga qarash bilan bandligi tufayli ishlamayotgan ayollar;
- kasallik tufayli vaqtincha ishlamayotgan fuqarolar;
- o'quvchi yoshlar;
- mehnatga layoqatsiz shaxslarning parvarishi bilan band bo'lgan, ishlamayotgan mehnatga layoqatli fuqarolar ham kiradi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida quyidagi darajalarni ajratib ko'rsatish qabul qilingan:

- aholini davlat tomonidan muhofaza qilish;
- aholini davlat hokimiyatining mahalliy organlari tomonidan muhofaza qilish;
- aholini ijtimoiy birlashmalar, shu jumladan kasaba uyushmalari tomonidan muhofaza qilish;
- xodimlarni ish beruvchilar tomonidan muhofaza qilish;
- oilaviy himoya va o'zini o'zi himoya qilish.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki, boshqa institutlar aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida davlat tomonidan belgilangan maqsadlarga erishishda davlatga ko'maklashadilar. Davlat aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqa institutlari bilan munosabatlarini *ijtimoiy sherikchilik* asosida yo'lga qo'yadi.

II-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT IJTIMOIIY TA'MINOTINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

2.1. Davlat ijtimoiy ta'minotining moliyaviy manbalari va uning hozirgi holati tahlili

Ijtimoiy ta'minot tizimi davlat, ixtiyoriy, jamoa va xususiy institutlar, tijorat va notijorat tashkilotlarini o'z ichiga olgan aralash iqtisodiyot tamoyilida quriladi. Uning bunday qurilishi fuqarolarning mehnatga qobiliyati va daromadlarini yo'qotish sabablari ehtimolligidan kafolatlangan ijtimoiy himoyalash kabi, aholining turli toifalarining ijtimoiy xavfxatardan ta'minotlash xizmatlariga bo'lgan talablarini to'laroq qondirilishini ta'minlashga imkon beradi.

Ijtimoiy ta'minot yordamida jamiyat quyidagi asosiy vazifalarni hal qiladi:

- mehnat jarayonida ishtirok etmaydigan, mehnatga layoqatsiz kishilarni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplovchi pul jamg'armalarini shakllantiradi;
- mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning zaruriy miqdori va strukturasi ta'minlaydi;
- jamiyatning ishlovchi va ishlamaydigan a'zolarini moddiy ta'minlash darajasidagi uzilishni qisqartiradi;
- aholining mehnat jarayoniga jalb qilinmagan turli ijtimoiy guruhlarining turmush darajasini oshirishga erishadi;
- mehnatda band aholining kelajaklarini moddiy jihatdan ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Davlat ijtimoiy himoyasining maqsadga muvofiqligi va yuqori darajasini ta'minlaydigan ijtimoiy ta'minotning asosiy turlari quyidagilardir:

- pensiya ta'minoti (qarilik bo'yicha, umumiy kasallanish va turmushda va transportda baxtsiz hodisalar natijasida nogironlik bo'yicha);


- mehnatga qobiliyatini vaqtinchalik va doimiy yo'qotganlikdan ta'minotlashni nazarda tutuvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan ta'minotlash (ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasbga oid kasallik holatlarida);
- ishsizlik holatlari bo'yicha ta'minot;
- tibbiy ta'minot (kasallik tufayli mehnatga qobiliyatini vaqtinchalik yo'qotganlik ta'minoti va tibbiy yordam ko'rsatish).

“Bugungi kunda mamlakatimizda 60 yoshdan oshganlar soni 2 million 873 mingdan ko'proq kishini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida xalqimizning o'rtacha yoshi 1990 yildagi 67 yoshdan 73,5 yoshga, ayollar o'rtasida esa 75,8 yoshga etdi. Ayni paytda yurtimizda 225 ming nafar 80 yoshdan, 44 ming nafar 90 yoshdan, 8 ming 700 nafar – shunga e'tibor bering – 100 yoshdan oshgan tabarruk qariyalar yashamoqda. Ular orasida 3 ming 109 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, 69 ming 994 nafar front ortida mehnat qilgan insonlar borligini alohida ta'kidlash lozim. Bu nimaning isboti? Bu avvalo, istiqlol davrida xalqimizning turmush darajasi va sifati tobora ortib borayotganidan, yoshi ulug' odamlarimiz yaxshi niyat, ertangi kunimizga katta umid bilan yashayotganidan, ularning qalbi sofligidan dalolat beradi. Xonadonlarimiz ko'rki bo'lgan piri badavlat keksalarimizni har tomonlama qadrlash maqsadida mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda.”-deydi Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida⁴.

2014 yilning o'zida ularga davlat byudjeti hisobidan 11 trillion 618 milliard so'mdan ortiq pensiya, 105 milliard so'mdan ziyod nafaqalar to'langani buning amaliy tasdig'idir. Dunyodagi kamdan-kam davlatlar qatorida bugungi kunda davlatimiz pensiyaga ajratadigan mablag'ning miqdori o'rtacha oylikning 41 foizdan ziyodini tashkil etishi ham shundan dalolat beradi. Bu borada 2014 yil 13 oktyabrda qabul qilingan “1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident farmoniga asosan ularni ijtimoiy himoyalash, xususan, yilda bir marta o'zlari uchun maqbul muddatlarda sanatoriy-sog'lomlashtirish muassasalarida

⁴ Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan

davlat hisobidan davolanish imkoni yaratildi. Ayni vaqtda keksa avlod vakillariga nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy tuzilmalar tomonidan ham moddiy va ma'naviy ko'mak berilayotgani va bunday yordamning miqyosi kengayib borayotgani e'tiborga sazovor. Xususan, 2014 yilda "Nuroniylar jamg'armasi" tomonidan shu maqsadda 610 million so'm, joriy yilning 9 oyida esa 553 million so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgani, "Mahalla" xayriya jamoat fondi tomonidan 2013 yilda 1 milliard 597 million so'mdan ziyod, shu yilning o'tgan 9 oyida esa 1 milliard 614 million so'mlik yordam ko'rsatilgani ham bunga misol bo'la oladi.



2.1-rasm. Ijtimoiy ta'minot tizimini moliyalashtirish manbalari⁵

Aholini ijtimoiy ta'minoti tadbirlarini moliyalashtirish manbalarini quyidagi 2.1-rasmda ko'rishimiz mumkin. Aytish mumkinki O'zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy ta'minoti bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirishda asosiy o'rinni davlat budjeti hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi muhim ahamiyat kasb etadi.

⁵ Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida tayyorlangan

Davlat budjeti yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanish jarayonida davlatning jamiyatdagi vazifalarini bajarishi uchun maqsadli ravishda shakllantirilgan markazlashtirilgan pul fondi bo'lib va mamlakatda yashochi barcha aholining moliyaviy manfaatlarini o'zida ifoda etadi.

Davlat budjeti davlat moliyasi tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Budget tizimi murakkab mexanizm bo'lib, muayyan mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa jihatlarining butun majmui asosida shakllanadi.

Barcha davlatlarda xo'jalik sub'ektlarining faoliyati natijasida yalpi ichki mahsulot va milliy daromad yaratiladi.

Moddiy ishlab chiqarishda yaratilgan milliy daromad keyinchalik taqsimlash va qayta taqsimlash bosqichlaridan o'tadi. Milliy daromadni qayta taqsimlashda va undan keyinchalik foydalanishda muhim vazifani davlat budjeti o'ynaydi. Mamlakatda milliy daromadni qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismi pul shaklida budgetga tushadi va moliyaviy resurslarning markazlashgan fondini tashkil etadi.

Budget - davlatning oldida turgan maqsad va vazifalarini moliyaviy ta'minlashga mo'ljallangan pul mablag'lari fondini shakllantirish va xarajat qilish shaklini aks ettiradi. Budgetga mamlakat moliyaviy tizimida boshqaruvchilik holati tegishlidir. U umumdavlat moliyaviy resurs fondini shakllantirish va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, bir tomondan, davlat o'rtasidagi taqsimlash munosabatlarining bir qismini, ikkinchi tomondan korxonalar va aholi o'rtasidagi taqsimlash munosabatlarining bir qismini anglatadi. Ayniqsa, ijtimoiy soha (maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot) xarajatlarini mablag' bilan ta'minlash, oilalarga ijtimoiy nafaqa berish, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar bahosidagi farqlarni budgetdan qoplash, davlat hokimiyati organlari, boshqaruv va sud organlarini saqlash, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini moliyalashtirish, mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash kabi vazifalarning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashda Davlat budgetining ahamiyati juda beqiyosdir.

2.1-jadval

Davlat byudjetining xarajatlari tizimida ijtimoiy yo'nalishdagi xarajatlarning tutgan ulushi⁶

№	Ko'rsatkichlar	2006 yil		2007 yil		2008 yil		2009 yil		2010 yil		2011 yil		2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil (prognoz)	
		Mr. so'm	%	Mr. so'm	%	Mr. so'm	%	Mr. so'm	%	Mr. so'm	%	Mr. so'm	%	Mr. so'm	%	Mr. so'm	%	Mr. so'm	%	Mr. so'm	%
	Jami davlat byudjeti xarajatlari	4313,5	100	5334,2	100	7453,1	100	10913	100	13732,5	100	16991,1	100	21571,7	100	26312,4	100	31582,3	100	37967,7	100
	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash-jami	2205,3	51,1	2885,9	54,1	4000,6	53,7	6171	56,5	8113	59,1	10112,3	59,5	12513,2	58,0	15573,5	59,2	18783,4	59,5	22457	59,1
	Shu jumladan																				
1	Davlat ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash	1892,6	43,9	2500,7	46,9	3380,8	45,4	5080,2	46,6	6621,8	48,2	8455,4	49,8	10520,4	48,8	13626,2	51,8	16610,5	52,6	20026,8	52,7
2	Ijtimoiy ta'minot	16,9	0,4	20,7	0,4	34,5	0,5	47,1	0,4	59,3	0,4	74,3	0,4	93,8	0,4	107,3	0,4	125,9	0,4	150,4	0,4
3	Oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam	282,6	6,6	350	6,6	585,3	7,9	1043,7	9,6	1431,9	10,4	1582,6	9,3	1899	8,8	1840	7,0	2047	6,5	2279,8	6,0
4	Aholi uchun ijtimoiy zarur xizmatlar baholari o'rtasidagi farqni byudjetdan qoplash xarajatlari	13,2	0,3	14,5	0,3																

⁶ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida

O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 26-dekabrda qabul qilingan «Budjet kodeksi» ga muvofiq, Davlat budjeti- davlat vazifalari va funktsiyalarini moliyaviy jihatdan ta‘minlash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasi⁷dir.

Bugungi kunda davlat budjetining ijtimoiy ta‘minot bilan bog‘liq harajatlari ham Respublika budjetidan ham mahalliy budjetlardan mablag‘ bilan ta‘minlanadi.

2.1-jadvalda Davlat byudjetining xarajatlari tizimida ijtimoiy yo‘nalishdagi xarajatlarning tutgan ulushini va unda davlat ijtimoiy ta‘minoti xarajatlarini ko‘rishimiz mumkin.

2.1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, ya‘ni davlat budjeti harajatlari tizimida asosiy ulush ijtimoiy sohalar va aholini ijtimoiy muhofaza qilish harajatlariga yunaltirilgan bo‘lib, ohirgi yillarda jami davlat budjeti harajatlarining o‘rtacha 59% ni tashkil etmoqda.

Davlat budjetining ijtimoiy ta‘minot harajatlarining davlat budjeti harajatlari tizimidagi ulushi deyarli o‘zgarmagan va jami budjet harajatlarining 0,4 % ni tashkil etgan.

2015 yilda davlat budjeti mablag‘lari hisobidan ijtimoiy ta‘minot masalalari uchun 150,4 mlrd so‘m sarf etish rejalashtirilgan/ 2014 yilda ushbu summa 125,9 mlrd so‘mni tashkil etgan.

2.2 Davlat ijtimoiy ta‘minotiga yo‘naltirilgan Pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanishning hozirgi holati tahlili

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan majburiy to‘lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi. O‘zbekiston Respublikasi


⁷ O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-I-son) 3-modda. 2013 yil 26-dekabrda qabul qilingan

Hukumatining 2004 yil 21 oktyabrdagi 490-son qaroriga asosan, 2005 yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasiga aylantirilgan. “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta‘minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan o‘z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to‘liq hajmda to‘lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta‘minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda PF-4161-son Farmoniga muvofiq, 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to‘lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish Pensiya jamg‘armasining tegishli hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Moliya Vazirligi xuzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolarning davlat pensiya ta‘minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarni tayinlash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarining qayta hisoblab chiqilishini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 2004 yil 21 oktyabrdagi 490-son qaroriga asosan, 2005 yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasiga aylantirilgan. “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta‘minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan o‘z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to‘liq hajmda to‘lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta‘minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda PF-4161-son Farmoniga muvofiq, 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.



2.2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasi⁸

Bugungi kunda respublikamiz bo'yicha Pensiya jamg'armasining 14 ta hududiy boshqarmalari, 196 ta tuman (shahar) bo'limlari, 108 ta hududiy va ixtisoslashtirilgan TMEKlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Respublikamiz bo'yicha jami 2 mln. 936 ming nafardan ortiq pensiya va nafaqa oluvchilar istiqomat qilayotgan bo'lib, shundan, 2 mln. 716 ming nafari yoshga doir, 430 ming nafari nogironlik va 184 ming nafari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchilari

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda PQ -1252-sonli "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori 1-ilovasidan

hamda 220 ming nafardan ortiq ijtimoiy nafaqa oluvchilar tashkil etadi. 2014 yil mobaynida 138 mingga yaqin yangi pensiya va nafaqalar tayinlanadi. Ushbu pensiya va nafaqaoluvchilarga respublika bo'yicha jami 5 mingdan ortiq ishchi va hodimlar hizmat ko'rsatib kelmoqda.

Jamg'arma hamda uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, hamda tegishli muhr va shtamlarga ega. Shuningdek, qaror bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqaruv kengashi va ularning tarkibi ham belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda «Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4161-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda pensiya ta'minoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasi (2.2-rasm), Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparatining tuzilmasi, Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmalarining va tuman (shahar) bo'limlarining namunaviy tuzilmalari o'zgartirildi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hamda uning hududiy boshqarmalari va bo'limlari fuqarolarning pensiya ta'minotini amalga oshirish bilan bog'liq huquqlar va majburiyatlar qismida O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ijtimoiy ta'minot organlarining huquqiy vorislari hisoblanadi. Pensiya jamg'armasining yangi tashkil etilgan bo'linmalari Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining fuqarolarning pensiya ta'minoti masalalari uchun mas'ul bo'linmalari xodimlarining tegishli soni hisobiga, o'tkaziladigan attestatsiya natijalariga qarab to'ldirildi. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi direktori Pensiya jamg'armasi Kuzatuvchilar kengashining taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi. Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparati hamda uning hududiy boshqarmalari va

bo'limlarining xodimlariga moliya organlari xodimlari uchun belgilangan mehnat haqi shartlari tatbiq etiladi.

Davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, pensionerlarning moddiy farovonligini oshirish va ijtimoiy adolatli tamoyillarini mustahkamlash maqsadida, 1993 yilda qabul qilingan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'tgan yigirma yil davomida bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Ushbu qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi pensioner va nogironlarning turmush darajasi hamda faravonligini oshirishga, ularning ijtimoiy muhofazasini ta'minlashga qaratilgan.

2011 yil 1 yanvardan tegishli o'zgartirishlar kiritilib, o'z ahamiyatini yo'qotgan ayrim imtiyozlar va mehnat faoliyatining alohida davrlarini ish stajiga hisoblash mexanizmlari optimallashtirildi hamda endilikda yoshga doir pensiyalarni tayinlashda mehnat stajining quyi chegarasi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunining 38-moddasida stajga imtiyozli tarzda qo'shib hisoblanadigan faoliyat davrlari belgilangan. Masalan, jangovar harakatlar davrida harakatdagi armiyada xizmat qilish uch baravar miqdorda, urush davrida front ortida xizmat qilish – ikki baravar miqdorda hisobga olinadi. O'rindoshlik asosida ishlangan davrni stajga imtiyozli tarzda qo'shib hisoblanishi qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan. Qo'shimcha tariqasida tushuntirish beramizki, O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunining 32-moddasiga muvofiq, davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalanmaydigan shaxslarning pensiyasini hisoblab chiqarish uchun ish haqiga sug'urta badallari olinadigan mehnat haqi turlariga o'xshash pul ta'minotining barcha turlari qo'shiladi. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun qo'llaniladigan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash vaqtida o'rindoshlik asosida olingan ish haqi pensiyani hisob-kitobiga kiritiladi.

Shu bilan birga, 2012 yil 6 yanvardan kuchga kirgan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalarda ijtimoiy

orientatsiyaning universalligi tamoyillarini bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mohiyati fuqarolar pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqlarini o'tgan yillardagi ish haqlari, pensiya tayinlanadigan kundagi ish haqi darajasiga keltirish uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriladigan tartibga asosan amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Qonunning izchil ijrosini ta'minlash va pensiya ta'minoti sohasini mustaxkamlash maqsadida Vazirlar Maxkamasining 12 ta qarorlari qabul qilindi va bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, tegishli tatibda Adliya vazirligidan davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Xususan pensiya tayinlash va to'lash jarayonini tartibga soluvchi yagona Nizom - Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori amaliyotga joriy etildi.

Pensiya qonunchiligini takomillashtirish borasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining pensiya va ijtimoiy nafaqalarni to'lash hamda tayinlash masalalarini tartibga soluvchi qator qarorlari, shuningdek, fuqarolarni tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarida tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi ishlab chiqilib tasdiqlandi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan qaroriga binoan "Davlat pensiyasini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida" va "Pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan amaldagi ish haqini ish haqining individual tartibdagi koeffitsientlarini qo'llagan holda qayta hisoblab chiqish to'g'risida"gi Nizomlar tasdiqlandi. Ayni vaqtda qonunchilikka asosan o'rnatilgan tartibga binoan "Ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash tartibi to'g'risida" va "Yagona ijtimoiy to'lovni taqsimlash, shuningdek, xarajatlarni qoplash bo'yicha summalarining to'lanishi va yuridik shaxslarning davlat ijtimoiy sug'urtasi xarajatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomlar ishlab chiqilgan.

Qonunchilikka 2010 yilda kiritilgan o'zgartirishlar ham aholini aniq manzilli himoya qilishning yana bir yorqin tasdig'idir. Unga ko'ra, xizmat burchini bajarish paytida halok bo'lgan xarbiy xizmatchilar va ichki ishlar organlari xodimlarining

ota-onalariga va yangi nikohdan o'tmagan beva xotinlariga (beva erlariga) har oyda ustama haq to'lanadi.

“Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi va ushbu qonun asosida Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 14 iyundagi qarori bilan “Dafn etishga nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi. Misol uchun, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinguniga qadar dafn etish uchun nafaqa Pensiya jamg‘armasini bo‘limlari tomonidan faqat pensionerlarning qarindoshlariga 2 oylik pensiya miqdorida, ammo eng kam ish haqining 2 barobaridan kam bo‘lmagan miqdorida to‘langan bo‘lsa, qonun qabul qilingach, bu nafaqa barcha toifadagi fuqarolarga eng kam ish haqining 3 barobaridan kam bo‘lmagan miqdorda to‘lanmoqda. Shu bilan birga, tibbiy mehnat ekspert komissiyalari xizmatlari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida qator hukumat qarorlari qabul qilindi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 23 dekabrda qabul qilindi. Shuningdek, “Nogironni reabilazatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturi to‘g‘risida”gi Nizom, shuningdek, “Nogironni reabilazatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturining yangi shakli” , 2011 yil 7 apreldagi qaroriga muvofiq “Bolalikdan nogironlarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi, “Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomlari tasdiqlandi.

Shuningdek, pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish tartib qoidalari hamda pensiya qonunchiligiga oid bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib amaliyotga keng joriy etilishi, pensiya tizimi faoliyatini normativ-huquqiy bazasini yanada mustahkamlamoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta’minoti tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida amaliyotga yangi pensiya, ya’ni jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi joriy qilindi. Bu tizim O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunga asosan 2005 yil 1 yanvardan boshlab amaliyotga tatbiq qilib kelinmoqda. 2005 yil 1 yanvardan boshlab joriy etilgan mazkur tizim

amaldagi fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimiga qo'shimcha ravishda, ish beruvchilarning pensiya yoshiga etgan xodimlarning moddiy axvolini yaxshilash, shu asosida pensionerlarga amaldagi pensiya to'lovlariga qo'shimcha ravishda daromad olish manbalarini yaratish, keksalik chog'ida fuqaroning o'z farovonligi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish maqsadida joriy qilindi.

2.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti bo'yicha ijtimoiy nafaqalar va pensiya oluvchilar soni (ming kishi)⁹

№	Ko'rsatkichlar	2013 yil 1-yanvar holatiga	2014 yil 1-yanvar holatiga
	Jami pensionerlar va ijtimoiy nafaqa oluvchilar Shu jumladan:	3071.3	3090.9
1	Yoshga doir pensiyalar	2118.2	2147.5
2	Nogironlik bo'yicha pensiyalar	406.4	391.9
3	Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari	260.8	250.4
4	Ijtimoiy nafaqalar	285.9	301.0

Bugungi kunda respublikamizda jami 3 dan ortiq pensiya oluvchilar mavjud bo'lib, Respublikamiz aholisining 9,9 %ni tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida tahlil qiladigan bo'lsak 2014 yil 1-yanvar holatida Respublikamiz bo'yicha jami 3090900 kishi pensiya ta'minoti bo'yicha ijtimoiy nafaqalar va pensiya oluvchilar sifatida qayd etilgan (2.2-jadval).

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining *daromadlari*¹⁰:

- yagona ijtimoiy to'lovning belgilangan miqdordagi tushumlari;

⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son) 2013 yil 26-dekabrda qabul qilingan

Davlat Pensiya jamg'armasining daromadlari ijrosi¹¹

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil (prognoz)	
	Mln. so'mda	Jami daroma dlarga nisbata n foizda	Mln. so'mda	Jami daromadl arga nisbatan foizda	Mln. so'mda	Jami daromad larga nisbatan foizda	Mln. so'mda	Jami daromad larga nisbatan foizda	Mln. so'mda	Jami daromadl arga nisbatan foizda
Jami daromadlar	6144391.7	100.0	8065400.0	100.0	10302100.0	100.0	13013700.0	100.0	16557000.0	100.0
Yil boshida kutilayotgan qoldiq	500.0	0.01	280100.0	3.5	602200.0	5.8	1067300.0	8.2	2592000.0	15.6
Daromadlar	6143891.7	99.99	7785300.0	96.5	9699900.0	94.2	11946400.0	91.8	13965000.0	84.3
Shu jumladan:										
Mexnat xaqi fondiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar	3903400.0	63.5	4799200.0	59.5	5907400.0	57.3	7299500.0	56.1	8324200.0	59.6
Axoli ish xaqi fondidan majburiy sug'urta badali	720425.0	11.7	1110200.0	13.8	1482700.0	14.4	1877200.0	14.4	2463800.0	17.6
Tovar (xizmat, ish) larning sotish hajmidan majburiy ajratmalar	1122666.7	18.3	1401500.0	17.4	1591300.0	15.4	1933000.0	14.9	2063800.0	14.7
Boshqa daromadlar	397400.0	6.5	474400.0	5.9	718500.0	7.0	836700.0	6.4	1113100.0	8

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabr PQ-1675-sonli, 2012 yil 25 dekabr PQ-1887-sonli, 2013 yil 25 dekabrda PQ-2099-sonli, 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270-sonli Qarorlari asosida tuzildi.

- fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalarini to'lash xarajatlarining o'rnini qoplash uchun taqdim etiladigan regress talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolar tomonidan o'zni qoplanadigan mablag'lar tushumining bir qismi, O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, yuridik shaxslarning imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari, majburiy to'lovlar, badallar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun hisoblangan jarimalar va penyalar summasining bir qismi, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoxud sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi), fermer va dehqonxo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda zararning o'rnini qoplash uchun to'lanadigan nazarda tutilgan mablag'lar, vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar kiradi.

2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ya'ni Davlat Pensiya jamg'armasining daromadlari tizimida asosiy tushum ish haqi jamg'armasiga nisbatan ajratiladigan yagona ijtimoiy to'lov (pensiya jamg'armasiga-24,8%) hissasiga to'g'ri kelib, yillar davomida uning jami daromaddagi tutgan ulushi ushish xususiyatiga egadir. Shuningdek, fuqarolarning ish haqlari hisobidan ajratiladigan yagona ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga ajratma (7 %) hissasi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi aholining ish bilan bandligining oshish sur'atlari va o'tgan yillarga nisbatan ajratma stavkalarining oshishi hisoblanadi.

2.4-jadval

O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasining xarajatlari ijrosi¹²

t/ r	Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil (prognoz)	
		Mln. so'mda	Jami xarajatlarga nisbatan foizda	Mln. so'mda	Jami xarajatlarga nisbatan foizda	Mln. so'mda	Jami xarajatlarga nisbatan foizda	Mln. so'mda	Jami xarajatlarga nisbatan foizda	Mln. so'mda	Jami xarajatlarga nisbatan foizda
	Xarajatlar barchasi	6144391.7	100.0	8065400.0	100.0	10302100.0	100.0	13013700.0	100.0	16557000.0	100.0
1.	Ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari	5862700.0	95.4	7246000.0	89.8	9097900.0	88.3	11191900.0	86.0	12838100.0	77.5
2.	Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovi	278900.0	4.5	290900.0	3.6	317400.0	3.1	426600.0	3.3	474800.0	2.8
3.	Katta yoshdagilar va ishlamaydigan fuqarolar uchun nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar	700.0	0.01	12800.0	0.2	20500.0	0.2	29100.0	0.2	105200.0	0.6
4.	Boshqa xarajatlar	1600.0	0.03	1800.0	0.02	2100.0	0.02	2400.0	0.02	2800.0	0.02
6.	Yil oxirida qoldiq mablag'lar	491.7	0.01	513900.0	6.4	864200.0	8.4	1363700.0	10.5	3136100.0	18.9

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabr PQ-1675-sonli, 2012 yil 25 dekabr PQ-1887-sonli, 2013 yil 25 dekabrda PQ-2099-sonli, 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270-sonli Qarorlari asosida tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'laridan:

- ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;
- ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;
- davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar;
- dafn etish marosimi uchun nafaqalar;
- belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar uchun foydalaniladi.

2.4-jadvalda Davlat Pensiya jamg'armasining xarajatlari tizimining 2011-2015 yillar davomidagi dinamikasi keltirilgan bo'lib, undan ko'rinadiki, ya'ni Davlat Pensiya jamg'armasi xarajatlari tizimida asosiy ulush ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari hissasiga to'g'ri kelib, uning tutgan ulushi yil sayin umumiy xarajat qismida pasayish xususiyatiga egadir. Aksincha Pensiya jamg'armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo'lib, uning ulushi o'sish xususiyatiga egadir. Agar 2010 yilda uning ulushi jami xarajatlarning tarkibida 0,4 % ni tashkil etgan bo'lsa 2015 yilga kelib 18,9% ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Bu esa oxirgi yillarda xukumatimiz tomonidan Davlat pensiya tizimini isloh qilish, uning mablag'laridan samarali foydalanish tizimidagi say xarakatlari natijasidir. Ortiqcha to'langan pensiyalarning qaytarilishi, pensiyalarni hisoblash tizimini takomillashuvi natijasida Jamg'arma hisobida qoldiq hosil bo'lib, keyingi yillarda pensiya tizimi dasturlarida belgilangan vazifalar doirasida sarf etilmoqda.

2.5-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ya'ni 2015 yil 1-yanvar holatida Surhandaryo viloyatida budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan pensiya va nafaqalar oluvchilar 195587 kishini tashkil etgan 1 aprel holatida ularning soni 1051 kishiga ko'payib, 196638 kishini tashkil etgan. 2015 yilning 1-yanvar holatiga Surhandaryo viloyatida yoshga doir pensiya oluvchilar 138641 kishini tashkil etgan.


2.5-jadval

Surxandaryo viloyatining Pensiya jamg'armasi bo'limlari bo'yicha 2015 yil 1 yanvar va 2015 yil 1 aprel holatiga pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining harakati to'g'risida ma'lumot¹³

№	Pensiya va nafaqa oluvchilar toifasi	Kishi, soni		Sondagi farq (-,+)	Yangi tayinlangan pensiya va ijtimoiy nafaqa ishlari soni		Sondagi farq (-,+)
		2015 yil 1 yanvar holatiga	2015 yil 1 aprel holatiga		2014 yil yanvar-mart oylarida	2015 yil yanvar-mart oylarida	
1	Pensiya jamg'armasi bo'limlari hisobda turgan pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar - jami	195587	196638	1 051	2114	2972	858
Pensiyalar							
2	Pensionerlar – jami	175205	175833	628	1564	2217	653
2.1.	shundan: Yoshi bo'yicha pensiyalar	138641	139291	650	1069	1590	521
2.2.	Nogironlik bo'yicha pensiyalar	23301	23283	- 18	212	300	88
2.3.	Boquvchisini yo'qotgan oilalarga beriladigan pensiyalar	13263	13259	- 4	283	327	44
Ijtimoiy nafaqalar							
3	Ijtimoiy nafaqa oluvchilar - jami	20382	20805	423	550	755	205

¹³ Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Surxandaryo viloyati Boshqarmasi ma'lumotlari asosida

2.3-rasmda Surhandaryo viloyati bo'yicha 2015 yil 1-aprel holatiga pensiya va nafaqa oluvchilar soni va ularning ulushi keltirilgan.



2.3-rasm. Surhandaryo viloyati bo'yicha 2015 yil 1-aprel holatiga pensiya va nafaqa oluvchilar soni va ularning ulushi¹⁴

2.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ya'ni Surxandaryo viloyati bo'yicha jami aholining 8,3 % byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan pensiya va nafaqa oluvchi sifatida ro'yxatdan o'tgan. Shundan asosiy pensiya va nafaqa oluvchilar sifatida asosiy ulush Boysun tumaniga to'g'ri kelib, ushbu tumanning jami aholisining 10,1 % byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan pensiya va nafaqa oluvchi sifatida qayd etilgan. Eng kam ulush Qumqurg'on tumaniga to'g'ri kelgan va unda jami aholisi tarkibida pensiya va nafaqa oluvchilarning soni bo'yicha 7,4 % ni tashkil etgan.

¹⁴ Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Surhandaryo viloyati Boshqarmasi ma'lumotlari asosida

2.6-jadval

Surxandaryo viloyatining Pensiya jamg'armasi bo'limlari hisobida turgan pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi fuqarolar soni to'g'risida tezkor ma'lumot¹⁵

№	Hududlar nomi	2015 yil 1 yanvar holatiga aholi soni	2015 yil 1 yanvar holatiga jami pensiya va nafaqa oluvchilar		2015 yil 1 aprel holatiga aholi soni	2015 yil 1 aprel holatiga jami pensiya va nafaqa oluvchilar		farqi (kishi soni)
			kishi soni	aholi sonidagi ulushi %		kishi soni	aholi sonidagi ulushi %	
1	Angor	118975	10335	8,7	119300	10354	8,7	19
2	Boysun	108569	10952	10,1	108869	11017	10,1	65
3	Denov	353484	28679	8,1	353830	28678	8,1	-1
4	Jarkurgon	196629	15181	7,7	196945	15487	7,9	306
5	Kizirik	152193	11769	7,7	152563	11816	7,7	47
6	Kumkurgon	208188	15512	7,5	208789	15469	7,4	-43
7	Muzrobot	127107	10832	8,5	127865	10865	8,5	33
8	Oltinsoy	157199	12213	7,8	157568	12115	7,7	-98
9	Sariosiyo	184183	16654	9,0	184652	17017	9,2	363
10	Termiz t.	97183	8460	8,7	97435	8721	9,0	261
11	Termiz sh.	137792	10691	7,8	138292	10751	7,8	60
12	Uzun	158904	13956	8,8	159234	13917	8,7	-39
13	Sherobod	173868	15210	8,7	174568	15264	8,7	54
14	Shurchi	184504	15143	8,2	184736	15167	8,2	24
Jami		2358778	195587	8,3	2364646	196638	8,3	1051

¹⁵ Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Surxandaryo viloyati Boshqarmasi ma'lumotlari asosida

III-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT IJTIMOIIY TA'MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1 Zamonaviy sharoitda davlat ijtimoiy ta'minotining moliyaviy manbalarini mustahkamlash masalalari

Ma'lumki, 2015 yil "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilindi. Hukumatimiz tayyorlayotgan dasturda keksa avlod vakillari, avvalo, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga ko'rsatiladigan tibbiy va ijtimoiy xizmat darajasi va sifatini oshirish, muhtojlarni yordamchi va rehabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlash, tumanlar va mahallalarda qariyalarimiz uchun muloqot markazlari, ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, turli klublar tashkil etish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'zda tutildi. Muxtasar aytganda, bugungi tinch va obod hayotimizni barpo etishga beqiyos xizmatlari singgan, xonadonlarimizning fayzi bo'lgan mo''tabar keksalarimizning farovon va munosib umr kechirishlari uchun keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimiz, deb qabul qilishimiz darkor. Bunda turli muassasa va xizmatlar, birinchi navbatda, pensiya, ijtimoiy ta'minot va tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va zarur darajada nazorat qilish masalalari nazarda tutilishi kerak¹⁶.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 29 dekabrda Farmonida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan 2010 yil dekabr oyidan

¹⁶“2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir” O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 19.01.2015 yil.-www.uza.uz- internet sayti ma'lumotlari asosida

boshlab budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining bo'limlarida pensiyalarning to'g'ri tayinlanishi, mehnat staji va ish haqlari to'g'risidagi ma'lumotlarining haqqoniyligi bo'yicha hujjatli tekshiruv ishlari amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunga kelib, 117 ta tuman (shahar) bo'limida o'tkazilayotgan mazkur tekshiruvlar avval tayinlangan pensiya ishlarining 35 foizini qamrab olgan bo'lib, ularning 10 foizida pensiya va nafaqalarni asossiz tayinlanishi va to'lanishi yuzasidan ko'plab qonunbuzilish holatlari aniqlandi. Tekshiruvning dastlabki natijalariga ko'ra, 2012 yil 1 yanvar holatiga, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan 150,5 mlrd. so'm mablag'larning ortiqcha to'lanishi holatlari aniqlangan bo'lib, shundan 44,7 mlrd. so'mi undirildi.

Tekshiruv natijalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, aniqlangan ortiqcha to'lovlarining 73 foizi fuqarolarning mehnat staji va ish haqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni arxiv idoralari, korxonalar va tashkilotlar tomonidan qalbakilashtirish orqali noqonuniy tayinlangan pensiyalarga to'g'ri keladi.

Noqonuniy tayinlangan pensiyalarning 7%dan ko'prog'i ishlovchi pensionerlarga to'g'ri kelib, mazkur fuqarolar Pensiya jamg'armasi bo'limlarini o'z vaqtida mehnat faoliyati amalga oshirayotganligi to'g'risida ogohlantirmaganliklari natijasida qonunchilikda belgilangan 50% o'rniga 100% miqdorida pensiyalar olishgan.

Bundan tashqari, fuqarolar tomonidan pensiyalarni muddatidan avval tayinlanishi uchun pasport ma'lumotlarini qasddan o'zgartirish orqali yoshini o'zgartirish bilan bog'liq noqonuniy to'lovlar bo'yicha ko'plab holatlar aniqlandi.

Tibbiy mehnat ekspert komissiyalari tomonidan 2011 yilda nogironlik belgilash va qayta ko'rikdan o'tish bo'yicha tibbiy hujjatlar ekspert tekshiruvlari natijasida esa nogironlar umumiy sonining 8,3 foizi miqdoridagi nogironlik xulosalari bekor qilingan yoki nogironlik guruhlariga qayta ko'rib chiqilgan.

Ayni paytda aniqlangan ortiqcha to'lovlar qonunchilikda belgilangan tartibda undirilmoqda.

Pensiya jamg'armasini texnik modernizatsiya qilish masalasiga ustuvor vazifa sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda, eng avvalo, pensiya va nafaqa oluvchilarning ishonchli himoyalangan yagona markazlashgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradigan avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish ishlari jadal olib borilayapti. Bu sohada samaradorlikni oshirib, tezkor va aniq hisobotlar shakllanishi, pensiya tayinlanishi va to'lanishida inson omilini kamaytirish orqali jamg'arma mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yagona elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida "Fido biznes" MCHJ bilan hamkorlikda "Pensiya" dasturiy majmuasi ishlab chiqildi. U 2011 yil sentyabrdan Toshkent shahrida, dekabr oyidan boshlab esa Toshkent viloyatida ishga tushirildi. Ushbu yangilik 2012 yil birinchi yarmi davomida butun respublika bo'yicha tadbiq etildi. Shuni ham aytish joizki, bugungi kunga kelib, pensioner va nafaqa oluvchilarning 100 foizi to'g'risidagi ma'lumotlar shakllanayotgan yagona elektron axborot bazasi tomonidan qamrab olingani e'tiborga loyiqdir.

2013-2014 yillarda, shuningdek, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 40 dan ortiq tuman (shahar) bo'limlari binolari qayta ta'mirlanib, kapital rekonstruktsiya qilindi. Joriy yilda yana 33 ta tuman (shahar) bo'limida ta'mirlash, fuqarolarni qabul qilish xonalarini asosiy vositalar va mebellar bilan jihozlash ishlari yakunlanish mo'ljallanmoqda.

Umuman olganda, tizimni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan qayta jihozlash maqsadida 1,7 mingdan ortiq kompyuter, 600 ta printer va boshqa kommunikatsion uskunalar sotib olinib, hududiy bo'linmalarga etkazib berildi. Bu zamonaviy kompyuter texnikalari va pereferik qurilmalarga bo'lgan talab 90 foizga ta'minlandi, deganidir.

Pensiya ta'minoti sohasida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Zotan, soha samaradorligini oshishi va tizimga jamonaviy texnologiyalarning jadal tatbiq etilishi bu erda

mehnat qilayotgan mutaxassislarning salohiyatiga bog'liq. Jamg'arma tizimida yosh mutaxassislarni "Ustoz-shogird" usulida tarbiyalash mexanizmi joriy etilgani kutilgan natijani berayotir.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida pensiya tizimining quyidagi kamchiliklari namoyon bo'ldi:

- moliya bozoridagi tebranishlar pensiya jamg'armalariga salbiy ta'sir ko'rsatdi;
- o'rnatilgan me'yorlar moliya bozorining yuqori riskli dastaklaridan foydalanishni man etadi va bu holat kutilayotgan daromadlarning nisbatan past bo'lishiga olib keladi;
- fond bozorlarini yanada barqarorlashtirish va rivojlantirish zarur.

Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirishning qisqa muddatga mo'ljallangan tavsiyalar:

- qisqa muddatli muammolarini hal etish uchun pensiya tizimining uzoq davrga mo'ljallangan rivojlanish dasturlariga o'zgartirish kiritish shart emas;
- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida to'plangan tajribani demografik inqirozga tayyorgarlik ko'rish uchun qo'llash kerak.

Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirishning uzoq muddatga mo'ljallangan tavsiyalar:

Birinchi bosqichda:

- pensiyani indeksatsiya qilishda inflyatsiya sur'atlariga asoslanish;
- pensiyaga chiqish yoshini oshirish, erkaklar va ayollar uchun bu ko'rsatkichni tenglashtirish;
- pensiyaga erta chiqish imkoniyatlarini kamaytirish;
- davlat pensiyasi qiymatining pasayib borishi to'g'risida axborotni aholiga etkazish.

Ikkinchi bosqichda:

- kapitalni jamg'arish va pensiya to'lash bosqichlarida moliya bozorlaridagi tebranishlardan sug'urtalanish samaradorligini oshirish;

- pensiya fondlarini o'z a'zolari uchun ko'proq mablag' ishlab topishi uchun ularni nazorat qilishni kamaytirish;
- fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan choralarni faol qo'llash va inflyatsiya darajasiga nisbatan indeksatsiya qilinuvchi qimmatli qog'ozlarni joriy qilish.

3.2 Davlat ijtimoiy ta'minoti taraqqiyoti istiqbollari

Respublikamizda «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida» gi Qonun qabul qilingandan keyin o'tgan davr mobaynida jamiyatdagi istisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar hamda pensiya ta'minotini moliyalashtirishda vujudga kelgan muammolar ushbu tizimni isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.

Pensiya ta'minoti tizimini isloh qilishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- pensiya ta'minotini bozor munosabatlari talablariga yanada moslashtirish;
- pensiyalarni moliyalashtirishdagi mavjud muammolarni xal qilish;
- pensiya ta'minoti harajatlarini kamaytirish, ularning maqsadli sarflanishi va pensiya to'lovlarini amalga ustidan nazoratni kuchaytirish;
- pensiya ta'minotini zamonaviy texnik usullar orqali boshqarish;
- davlat tasarrufida bo'lmagan xususiy pensiya ta'minoti tizimini yaratish.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda pensiya ta'minotini bozor munosabatlarga moslashtirish va mehnat staji davomiyligining ahamiyatini yanada oshirish muammolari alohida ahamiyat kasb etadi. Pensiya tayinlashda faqatgina sug'urta badallari to'langan davrlarni inobatga olish zarur. Bularni xal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- fuqaro ishlamagan, lekin hozirgi kunda stajga qo'shiladigan davrlarni asta-sekin kamaytirish va keyinchalik umuman bekor qilish;
- imtiyozli tarzda stajga qo'shiladigan davrlarni bekor qilish;
- pensiyalar tayinlashda ish haqi cheklovlarini qayta ko'rib chiqish;

- pensiyalar miqdorini bevosita fuqaroning butun mehnat faoliyati davomida to'lagan sug'urta badallari miqdoriga bevosita bog'lash fuqaro ishlamagan davri stajga qo'shish yoki stajni imtiyozli tarzda hisoblashga ehtiyoj qoldirmaydi.

Hozirgi kunda pensiyalarni hisoblab chiqishda aksariyat hollarda ish haqi to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar saqlanmaganligi, shu kunga qadar arxivlarga hujjatlarni topshirish va ularni saqlanishida kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligi, to'langan badallarni shaxsiy hisobi yuritilmaganligi sababli muammolarga duch kelinmoqda.

Sug'urta badallari to'lovlarini yig'ish va ularni sarflashni tartibga solish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- sug'urta badallari to'lovlarini to'lashi lozim bo'lgan har bir yuridik va jismoniy shaxslarni aniq hisobini yuritish;

- har bir fuqaro tomonidan to'lanayotgan sug'urta badallarining shaxsiy hisob-kitobini yuritish;

- har bir fuqaroning ish stajlarini hisob-kitobini yuritib borish;

- sug'urta badallari to'lovchi sifatida ro'yhatdan o'tmaganlar badallarni o'z vaqtida to'lamayotgan yoki kamaytirib to'layotganlarga solinadigan jarimalar miqdorini oshirish;

- pensiya jamg'armasi mablag'larini faqatgina sug'urtalanuvchi fuqarolarning ijtimoiy himoyasiga sarflash.

YUqoridagi birinchi uchta masalani xal qilish uchun byudjetdan tashqari pensiya jamg'armalari hududiy bo'limlarida fuqarolarning ish stajlarini va sug'urta badallarini hisobini yuritish bo'yicha guruh tashkil qilinishi lozim. Ma'lumotlar markazlashgan dastur asosida yuritilib, har bir yuridik shaxs va jismoniy shaxs majburiy tarzda ro'yhatdan o'tkaziladi. Ma'lumotlar yuridik va jismoniy shaxslarning STIR i asosida dasturga kiritib boriladi va har bir fuqaroning qaysi vaqtda qaerda va qaysi tashkilotda ishlaganligi hamda hozirgi kunga qadar qancha sug'urta badali to'laganligini bilib turish mumkin. Bu pensiya tayinlanayotgan

paytda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hududiy bo'limlarining pensiya tayinlash guruhi xodimlarini ishini engillashtiradi va pensiyalarni o'z vaqtida hamda to'liq va ishonchli tayinlanishini taminlaydi.

Islohotlarning ikkinchi yo'nalishi – pensiyalarni moliyalashtirishdagi mavjud muammolarni xal qilish. Hozirgi kunda ishlamaydiganlar uchun pensiyalarni, moliyalashtirish tartibiga asosan joriy to'lov oyining 15-kunigacha — o'tgan oyning ehtiyoji hisob-kitobidan kelib chiqib 50 foiz, qolgan miqdor amaldagi ehtiyojning taqdim etilgan miqdoridan kelib chiqib, joriy to'lov oyining 27-kunigacha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi. Ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lovi ish joyidan pensiya to'lovi o'tgan oy uchun oylik ish haqining ikkinchi qismi to'lovlari bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Ya'ni pensiyalarni moliyalashtirish ish haqi to'lovlari amalga oshirilayotgan paytda amalga oshirilishi lozim. Amaldagi tartib bo'yicha byudjet tashkilotlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ijtimoiy to'lovlarni moliyalashtirish uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armalariga mablag'ga bo'lgan talabnomani o'tgan oy uchun joriy oyning 10 kuniga qadar topshiradilar. Bu esa mablag'ni moliyalashtirish bo'yicha muddatlarni kechikishiga olib kelmoqda. Bu masalani xal qilish uchun byudjet tashkilotlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mablag'ga bo'lgan talabni byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armalari hududiy bo'limlariga ijtimoiy to'lovlarni to'lanishi kerak bo'lgan oyning o'zida, masalan 10 sanaga qadar topshirsa, moliyalashtirish oyning oxiriga qadar amalga oshiriladi. Bu holatda to'lovlarni amalga oshirish o'tgan oy uchun joriy oyning boshidan boshlab ish haqi to'lovlari bilan amalga oshiriladi. Agarda xodim ishdan bo'shasa, ishlagan kuni uchun to'lovlar to'lanib, qolgan mablag' byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga qaytariladi va keyingi talabnoma taqdim qilinayotgan paytda hisobga olinadi.

Uchinchi yo'nalish – pensiya ta'minoti harajatlarini kamaytirish, ularning maqsadli sarflanishi va pensiya to'lovlarini amalga ustidan nazoratni kuchaytirish. Ma'lumki, respublikamizdagi pensiya to'lovlari «avlodlar birdamligi» tamoyiliga

asoslangan. Ya'ni pensiyalar ishlayotganlarning sug'urta badallari hisobiga to'lab boriladi. Shuning uchun pensionerlar va ishlayotgan fuqarolar soni o'rtasida ma'lum muvozanat bo'lishi kerak. Lekin, respublikadagi demografik holat va ishsizlar sonini ortib borishi natijasida kelajakda bu muvozanat keskin salbiy tomonga qarab yurishi mumkin. Masalan, 1992 yilda 1 pensionerga 3,7 ishlovchi, 2001 yilda 3,4 ishlovchi to'g'ri kelgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 3,9 ni tashkil qilmoqda. Oxirgi yillarda mehnatda band bo'lganlar sonining oshishiga asosan xususiy tadbirkorlikka katta e'tibor berilishi sabab bo'lmoqda. Lekin ularning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'layotgan minimal summalar hozirda etarli bo'lsa, keyinchalik jamg'arma uchun etarli bo'lmaydi.

O'zbekistonda demografik vaziyat tahlili ko'rsatishicha, kelajakda ishlayotgan fuqarolar soni bilan pensionerlar soni o'rtasidagi nisbat kamayib boradi va ishlayotganlarning badallari pensiyalarni to'lash uchun ham etmaydi va harajatlarni qisqartirishni taqozo qiladi.

Pensiya ta'minotiga sarflanadigan harajatlar kamaytirish uchun asosan uchta yo'l mavjud: 1. Sug'urta badallarini oshirish; 2. Pensiya miqdorlarini kamaytirish; 3. Pensiya yoshini oshirish.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha aksariyat mamlakatlar pensiya yoshini ko'tarish yo'lini tanlashadi. SHu bilan bir qatorda mamlakatimizda jamoatchilikning aksariyat qismi fikri ushbu masalada salbiy hisoblanadi. Buning asosiy sababi respublikamizda o'rtacha umr ko'rish davomiyligining yuqori emasligida deb o'ylashadi. Vaholanki, mustaqillikning 20 yili davomida o'rtacha umr ko'rish 5,9 yilga¹⁷ oshganini, 60 yoshdan oshgan fuqarolarning o'rtacha umr davomiyligini asos qilib olgan holda pensiya yoshini oshirish sug'urta badallarini oshirish va pensiya miqdorini kamaytirishlardan ko'ra odilona yo'l ekanligini anglash qiyin emas.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar. Statistik to'plam. Toshkent-«O'zbekiston»-2011. 95-97 betlar.

Ma'lumki, O'zbekistonda pensiyalarning katta miqdori «O'zbekiston pochta» OAJ ning hududiy filiallari tomonidan to'lanadi va pensiyalarni pensionerlarning uylariga etkazib berishdagi harajatlarni qoplash uchun har oyda umumiy summaga nisbatan 0,9 foiz miqdorida mablag' ajratilmoqda. Bu borada pensiya to'lovlarini rivojlangan mamlakatlardagi kabi banklar, shu jumladan, Xalq banklari orqali to'lanishi, ya'ni pensiyalarni pensionerlarning hisob raqamlariga o'tkazilishini joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

To'lovlarning bunday uslubda amalga oshirilishining afzalligi shundaki, to'lov harajatlarini keskin qisqartirish bilan bir qatorda naqd pulga bo'lgan katta ehtiyojni kamaytiradi va pensionerlar hisob raqamida qoladigan mablag'larni iqtisodiyotga investitsiyalashga yo'naltirish imkonini beradi.

To'lovlarning bunday uslubda amalga oshirilishini ta'minlash uchun ruspublikada bank muassasalari tizimini kengaytirish, mavjud Xalq banklaridan pensiya to'lovlarini to'lash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida» gi Qonuni qabul qilingandan keyingi 20 yillik davr mobaynida ko'plab imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beruvchi lavozimlar, ko'plab lavozimlarga berilgan imtiyozlarni qisqarishiga erishildi. SHunga qaramasdan imtiyozli pensiyalar olishga huquq beruvchi kasb va lavozimlar juda ko'p. Jahon amaliyotiga ko'ra zararli va og'ir ishlarda band bo'lganlar ish beruvchilar tomonidan mehnat sharoitini yaxshilash va ularning ish haqini oshirish orqali ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi kerak.

To'rtinchi yo'nalish bo'lmish, pensiya ta'minotini zamonaviy texnik usullar orqali boshqarish ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lganlar to'g'risida tezkor va ishonchli axborotga ega bo'lish uchun o'ta muhimdir. Ma'lumotlar hisobi va uni qayta ishlash tizimini tubdan yaxshilamay turib aholini ijtimoiy himoyalash tizimida islohotlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Etarli darajada tezkor va aniq bo'lamagan axborotlar asoslangan holda bashoratlar o'tkazish va qarorlar qabul

qilish jiddiy xatoliklarga olib kelishi mumkin. Pensionerlar bo'yicha kompyuterlarda axborot bazalarini yaratish nafaqat ularni muhtojlik bo'yicha toifalarga ajratish, balki etarli aniqlik bilan mo'ljallanayotgan rejalarni respublika iqtisodi va byudjetiga qanday ta'sir ko'rsatishini hisoblab chiqish imkonini beradi. Ijtimoiy sohada islohotlar o'tkazish eng avvalo bozor munosabatlari talablariga javob beruvchi yangi qonunchilik bazani talab qiladi.

Beshinchi yo'nalish – davlat tasarrufida bo'lmagan xususiy pensiya ta'minoti tizimini yaratish. Ma'lumki, ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda davlat pensiya ta'minoti tizimi bilan birga davlat tasarrufida bo'lmagan nodavlat xususiy pensiya ta'minoti mavjud.

Nodavlat pensiya jamg'armalarining zarurati ikki sabab bilan asoslanadi:

Birinchidan – bozor munosabatlari va demokratiya fuqarolarga ko'proq erkinlik va davlat tasarrufidan mustaqilroq bo'lish imkonini berish bilan bir qatorda, ularga farovon turmush ko'rish, shu jumladan, ijtimoiy jihatdan ta'minlanish borasida katta mas'uliyat yuklaydi. Har bir fuqaro mehnat qilish qobiliyatini yo'qotgan taqdirda o'zini ijtimoiy himoya qilish masalalariga jiddiy yondashishi lozim.

Ikkinchidan – har bir davlatning qanchalik rivojlangan va iqtisodiy salohiyatidan qat'iy nazar, moliyaviy imkoniyatlarining chegarasi mavjud. Davlat fuqarolarni mehnat qobiliyatini yo'qotgunlariga qadar bo'lgan ijtimoiy himoyalanganlik darajasini o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilaydi. Davlat mehnat qobiliyatsiz fuqarolarni o'rtacha turmush darajasidan yuqori miqdorda ta'minlay olish imkoniyatiga ega emas.

Bozor munosabatlari shakllanib, iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlari o'rtasidagi o'zaro nisbat o'zgarib borishi tufayli ikki omil so'zsiz ijtimoiy ta'minot tizimiga o'z ta'sirini kuchaytirib boradi. Yuqoridagi ikki asosiy sabablarga ko'ra respublikamizda ham davlat tasarrufida bo'lmagan pensiya tizimini tashkil etishning ob'ektiv zarurati mavjud.

Ijtimoiy sohada islohotlar o'tkazish eng avvalo bozor munosabatlari talablariga javob beruvchi yangi qonunchilik bazasini talab qiladi. Qonunchilik asosida ijtimoiy ta'minot tizimining davlat va nodavlat tushunchalarini farqlash, bu tushunchalar zamirida nimalar tushunilishi kerakligini aniqlash lozim. SHu munosabat bilan quyidagilarni o'z ichiga oluvchi qonunlar ishlab chiqish va qabul qilish lozim:

- majburiy bo'lmagan ijtimoiy tizimlar ro'yhatini, ularning huquqlari va majburiyatlari, davlat bilan o'zaro aloqasi va munosabatlarini aniqlashi kerak bo'lgan «Nodavlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida» gi Qonun;

- nodavlat pensiya jamg'armalarini shakllantirish va faoliyat ko'rsatish tartiblarini, ularning davlat va jamiyat oldidagi javobgarligi, ushbu jamg'armalar ishtirokchilari bilan munosabatlarini aniqlashi lozim bo'lgan «Nodavlat pensiya jamg'armalari to'g'risida» gi Qonun.

Shuningdek, mamlakatdagi yangi iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatga mos keluvchi, bozor munosabatlarining talablariga javob beruvchi va barcha ijtimoiy ta'minotlarni o'z ichiga oluvchi Ijtimoiy ta'minot Kodeksini ishlab chiqish, qabul qilish zarur.

Mamlakatda ishlab chiqilishi va qabul qilinishi lozim bo'lgan qonunchilik bazasi respublikaning yangi, o'zgargan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olishi, keksalikda qo'shimcha ijtimoiy himoyatini ta'minlash uchun sharoitlar yaratishi, pensiya mablag'larini shakllanishi va harajatlari yo'nalishlarini aniq belgilashi, erkaklar va ayollar uchun pensiyalarni belgilash sharoitlarini tenglashtirishi yoki juda bo'lmaganda yaqinlashtirishi, imtiyozli pensiyalarni bartaraf etishi yoki sezilarli qisqartirishini hisobga olishi lozim.

O'zbekistonda pensiya islohoti bosqichma-bosqich tizimni rivojlantirishning muayyan muddatli rejalaridan kelib chiqib amalga oshirilishi kerak.

HULOSA

Milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari aholi daromadlari darajasining o'sishiga ishonchli zamin yaratadi. Bu esa o'z navbatida, davlatning amaldagi iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlarini ta'minlashga qaratilgan aholining pul daromadlari shakllanishi va ularni qayta taqsimlanishini ijro etuvchi davlat moliya mexanizmlarini takomillashirish talabini o'rtaga asosiy muammo qilib qo'ymoqda. Bu jihatdan O'zbekistonda mehnat yoshidagi fuqarolarni ijtimoiy va pensiya sug'urtalash bugungi kunda o'ta muhim ijtimoiy va iqtisodiy omil hisoblanadi. Chunki bozor munosabatlarining rivojlanishiga muvofiq ijtimoiy xavf-xatar darajalarini ortib borishi pensiya ta'minoti tizimining bozor mexanizmiga o'tishni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan shart qilib qo'yadi.

Jahonda hukum surayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqroz, barcha rivojlangan mamlakatlarida kuzatilayotgan aholining keksayib borishi, ish bilan band aholiga nisbatan pensionerlar sonining doimiy oshib borishi, pensioner va ishlovchilar soni o'rtasidagi o'zaro nisbatning kattaligi pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki pensiya xizmati darajasini ko'tarish, buning uchun qo'shimcha zaxiralarni jalb etish, pensiya tizimlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ishchining pensiyasini bevosita uning o'z mehnati bilan qo'shgan hissasiga bog'lash hamda nodavlat pensiya tizimini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishida oldiga qo'ygan vazifalarni hal qilish va olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Hozir davlatning eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri – aholining turmush darajasini oshirish bo'lib turibdi. Buni hal qilishning asosiy yo'llaridan biri esa pensiyaga chiqqan fuqarolarning yaxshi yashashlariga imkon beradigan pensiya ta'minoti bo'ladi. Pensiya tizimini tuzishdan maqsad keksa fuqarolar faqir yashamasligi uchun davlatning xayriya qilishi emas, balki inson keksayganda

uning to'kin yashashiga imkon beradigan pensiya tizimini moliyalash usulini o'ylab topish, ijtimoiy adolatni ta'minlash bo'ladi. Turli davlatlarda bu maqsadga erishish yo'llari bir-biridan farq qiladi.

2. O'zbekistonda pensiya tizimi barqarorligini ta'minlash va uning samarali faoliyat yuritishi uchun jahon tajribasidan foydalangan holda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha islohatlar amalga oshirish lozim.

3. Pensiya ta'minoti masalasi ayniqsa XX asrning 80-yillarida murakkablashdi – aynan shu vaqtda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida pensiya tizimi islohotlari boshlandi. Ishlayotganlar (to'laydiganlar) bilan ishlamayotganlar (pensiya oladiganlar) o'rtasidagi farq ko'paygani uchun taqsimlash tizimi ishlamay qoldi va bu muammo pensiya tizimini isloh qilishga majbur qildi. Pensiya ta'minotidagi farq asosan davlat xarajatlari hisobidan qoplanardi, ya'ni bu ham pensiya ta'minoti o'zgarishiga sabab bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib pensiya tizimi barqarorligini ta'minlashga oid quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Fuqarolarga yoshga doir pensiyani imtiyozli shartlarda tayinlashda imtiyozlarni bosqichma-bosqich kamaytirib borish lozim. Davlat pensiya tizimining faol mexanizm sifatida amal qilishi uchun "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tugrisida"gi O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi 938-XII-son Qonunini yanada takomillashtirish, unda belgilangan turli xil imtiyozlarni unifikatsiyalash zarur

2. Ishlayotgan pensionerlarga pensiya 50 foiz miqdorida to'lanadi. Bir vaqtning uzida ishlagan xolda fuqaro ijtimoiy ta'minot bo'limlari orqali tuliq miqdorda pensiya olish huquqiga ega bulishi, nazarimda, pensioner fuqarolarning mexnat faoliyatini yanada rag'batlantiradi.

3. Ishlovchi fuqarolar uz oylik maoshlaridan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga mablaglarni oyma-oy jamg'arib boradilar. Mazkur jamg'arlar iqtisodiyotda investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtiriladi.

Ammo jamg'arma egasi uz jamg'armasi uchun oladigan kushimcha ustama daromad resurslardan foydalanganlik uchun foiz ustamasidan bir necha marta kam xisoblanadi, xamda jamg'arma mablaglari iqtisodiyotdagi turli inflyatsion uzgarishlardan ximoyalanmaydi. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotiga nisbatan fuqarolar qarashlarini ijobiy tarafga uzgartirish, ularning yillar davomida jamg'arib boradigan mablaglariga nisbatan ustama foiz stavkalarini oshirish xamda turli salbiy inflyatsion ta'sirlardan ximoyalash choralari qullash lozim.

4. Qonunning 31-moddasi talablariga asosan pensiyani hisoblab chiqarishda inobatga olinadigan o'rtacha ish haqi eng kam ish haqining sakkiz barobari bilan chegaralanishini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. Ish beruvchilar va ishlovchilar tomonidan to'lanadigan majburiy sug'urta badallari o'rtasida tafovutni qisqartirish ya'ni, ishlovchilarning hissasini bosqichma-bosqich oshirib borish. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda yagona ijtimoiy to'lov foiz stavkasini yilma yil kamaytirib borish, sug'urta badallarini esa oshirib borish maqsadga muvofiq bo'lardi.

6. Erkaklar va ayollar o'rtasida pensiyaga chiqish yoshi va talab qilinadigan ish staj o'rtasidagi tafovutni qisqartirishni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

7. Nodavlat pensiya tizimini shakillantirish uchun qonunchilik asoslarini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

8. Pensiya ta'minoti tizimida muassasalar va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro ahbarot almashinuv tizimini ishlab chiqish va uni takomillashtirish lozim.

9. «Ish staji» tushunchasidan voz kechib, «sug'urta staji» tushunchasini kiritish, ya'ni pensiyalarni hisoblashda faoliyatning faqat majburiy pensiya badallari to'langan davrlarinigina hisobga olish kerak;

10. Ayollar va erkaklar umr ko'rish davomiyligi va ijtimoiy sug'urta badallarini to'lash vaqti davomiyligini hisobga olgan holda pensiya yoshi va ish

stajini yahlitlash lozim. (ayollar 55 yoshda 20 yillik ish staji bilan yoshga doir pensiyaga chiqadilar, ularning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi-o'rtacha 75,8 yil, erkaklarda 60 yoshda 25 yillik ish staji bilan yoshga doir pensiyaga chiqadilar, ularning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi-o'rtacha 71,1 yil)

11. Yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha hisoblash bazasini kengaytirilishi zarur. Bunda avvalom bor jismoniy shaxslarning qo'shimcha daromadlari sifatida e'tirof etiladigan mulkiy daromadlardan yagona ijtimoiy to'lov hisoblanishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., O‘zbekiston 1992 yil.
2. «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentabrdagi 938-XII-son Qonuni.
3. «Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 1998 yil 1 mayda tasdiqlangan yangi tahriri (616-I-son Qonun).
4. «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 2004 yil 2 dekabrdagi 702-II-son Qonuni.
5. «Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006 yil 7 oktabrdagi 88-sonli va 282-V sonli qarori asosida tasdiqlangan.
6. «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida»gi qonun O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 iyuldagi 162-son Qonuni.
7. «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida. O‘zbekiston Respublikasi qonuni.2007 yil 7 dekabr,O`RQ-119-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi -T., O‘zbekiston 2008 yil.
9. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi- T., O‘zbekiston 2010 yil.
10. «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 2010 yil 22 dekabr,O`RQ-272-son.

11. «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida. O'zbekiston Respublikasi qonuni.2012 yil 5 yanvar,O`RQ-318-son.

12. O'zbekiston Respublikasining "Budjet kodeksi" T. 2013 yil 26-dekabr.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining Aholining ish bilan bandligini kengaytirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2008 yil 29 dekabrda PQ-1024-son Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-1449-son 24.12.2010.

15. "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-1675-son 30.12.2011.

16. "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-1887-son 25.12.2012.

17. "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-2099-son 25.12.2013.

18. "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-2270-son. 4.12.2014.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2009 yil 30 dekabrda PQ-1252-son Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2009 yil 30 dekabrda PF-4161-son Farmoni.

21. «O‘zbekiston Respublikasi Ish bilan ta’minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida» Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 2 aprelda 173-son qaroriga 1-ilova.

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 aprelda 107-sonli «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy xujjatlarni tasdiqlash haqida»gi Qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.05.2011 yil 145-son Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 dekabrda 595-son Qarori bilan tasdiqlangan «Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida» gi Qarori.

24. «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 21.12.2004 yil 595-son qarori.

25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12 dekabr 2012 y.dagi 350-son "Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori.

26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15 fevral 2013 y.dagi 44-son "Kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 21 noyabr, PF-4672-sonli “Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi Farmoni

28. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2011 yil 14 ktyabr, 63-son “Pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish tartibi hamda pensiya hujjatlarining shakllari va ularni to‘ldirish qoidalari to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” gi buyrug‘i

29. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015 yil 30 yanvar,6-son “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiya, nafaqa va boshqa to‘lovlarni to‘lashni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” gi buyrug‘i

30. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. – Prezident I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi, 07.12.2010.

31. Prezident I.Karimovning BMT Sammiti Mingyillik Rivojlanish Maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. Xalq so‘zi // 21.09.2010

32. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.

33. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Toshkent.: “O‘zbekiston”. 2011 y. 52 b.

34. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. -T.: O‘zbekiston. 2012 y. 58 b.

35. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish” – T.: O‘zbekiston. 2013 y. 57 b.

36. I.A. Karimov “2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. 18.01.2014 yil

37. “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir” O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. 19.01.2015 yil.

II. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

1. Антропов В.В. Социальная защита в странах Европейского союза. Монография. -Москва.: Издательство «Экономика».2006. 173стр.

2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. –T.: «Mehnat». 2004. - 670 b.

3. Карчевский В.В., Андросова Л.Д., Окунева Л.П., Смирнова Е.Е. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. – М.: “Вузовский учебник”. 2011. -224 с.

4. Ерошенков С.Г. Переход к накопительной пенсионной реформе: мировой опыт и возможности применения его в России. - М: МАКС Пресс., 2012. - 251 с.

5. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg‘armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. 112 b.

6. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2014 y. 207 bet
7. Srojiddinova Z. O‘zbekiston Respublikasi budget tizimi. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010y. 500 bet
8. Xaitov A., Ziyadulaev M. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti va xorijiy tajribasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Adolat”. 2009. -172 b.
9. Qosimova G.A. Ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirishda budget siyosati. «Moliya». T., 2004. 152 b.
10. Qosimova G.A. Ijtimoiy siyosatning yo‘nalishlari. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2008. 112 b.
11. Qosimova G.A., Karimova Z.X. Budgetdan tashqari fondlar. O‘quv qo‘llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. - 212 b.

III. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

1. Alimova G. Ijtimoiy sug‘urtaning mazmun mohiyati va nazariy asoslari. // Birja Ekspert. -Toshkent. 2012. №6. – B.10-12.
2. Allayorov Sh., Mirzamaxmudov M. Pensiya jamg‘armasi faoliyatining jahon amaliyotidagi taraqqiyot bosqichlari. // Moliya. -Toshkent. 2012. №4. – B.134-139.
3. D.R.Vahobov. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. – Toshkent, 2010.- № 4.– B. 21-27.
4. Vaxabov D.R. “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pensiya tizimini takomillashtirishning yo‘nalishlari” mavzusi bo‘yicha iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan desertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2012 -22 b.
5. Vaxabov D.R. Jahon pensiya tizimining asosiy yo‘nalishlari // Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion faoliyatni investitsiyalash. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya tezislar to‘plami.– Toshkent, 2010. – B. 241-244.

6. Голубева С.В. Развитие пенсионных систем зарубежных стран и России в условиях демографического старения: автореф дис...к.е.н. -М.: Российский университет Дружбы народов. 2012. -27 б.

7. Shokirova F. Innovatsion rivojlanish modellari va iqtisodiy o'sish. // Moliya. –Toshkent. 2012. №3. –B. 73-79.

8. Xaydarov M. Davlat budjetining asosiy parametrlari obod turmush yilini ta'minlash omili sifatida. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2013. -№1. – B. 6-9.

9. Финансы Узбекистана: статистический сборник – Ташкент, 2009-2015
Г.Г.

IV. Internet saytlari:

www.gov.uz-(O'zbekiston Respublikasi hukumati portali)

www.ziynet.uz-(Axborot ta'lim tarmog'i)

www.soliq.uz-(O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi)

www.lex.uz-(O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari milliy bazasi portali)

www.publicfinance.uz-(O'zbekiston Respublikasida budjet tizimini isloh qilish loyihasi portali)

www.stat.uz- (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi)

www.pfru.uz-O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya Jamg'armasining rasmiy sayti